



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyun kuni tashkil topgan ● 2024-yil 7-iyun, №23 (3085)

JINOYATCHILIKKA QARSHI  
KURASHDA AMIR TEMUR  
O'GITLARI

16

UCH AVLOD UCHRASHUVI  
KO'TARINKI RUHDA  
O'TDI

7

O'ZBEKISTON MUDOFAA  
VAZIRLIGI MERGANLARI  
MUTLAQ G'OLIB

3



## YURT O'G'LONI MAYDONDA CHINIQAADI



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya



# TARBIYADA



## MILLIY G'OYA

Tarixdan ma'lumki, har qanday insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi ona Vatani himoya qilishi, uni cheksiz sevishi uning haqiqiy vatanparvarligini anglatadi. Inson kindik qoni to'kilgan joy uning uchun hamma narsadan ulug' va muqaddasdir. Vatanni sevish, uning uchun jonni fido qilish har bir insondan buyuk ma'naviy jasoratni talab etadi. Vatan bu Alloh inoyati bilan har bir millat, elatga berilgan bebaho ne'matdir.

O'z xalqi va millatining urf-odati, an'ana hamda qadriyatlarini e'zozlashi, o'z yurtini himoya qilishi, moddiy va ma'naviy meroslariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi vatanparvarlikning oliy belgisi hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". Zero Vatan muqaddas qadriyat sifatida doimo ulug'lanadi.

Vatanparvarlik – Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash va uning ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat. O'tmishdan ma'lumki, tarbiya insonda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuchdir. Aynan tarbiya tufayli insonda go'zal odob-axloq fazilatlarini shakllanib, insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilab beradi. Eng qadimgi va abadiy qadriyat sifatida tarbiya insonning qalb bezagi hisoblanadi. Shu bois jamiyat hayotida tarbiyaga bo'lgan munosabat nihoyatda mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi.

Bu haqda taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning **"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"**, degan chuqur ma'noli so'zlarida teran haqiqat aks etganini anglaymiz. Zero jamiyatda tarbiya masalasiga e'tiborsizlik bilan yondashuv aksariyat holatlarda insonni ma'naviy tubanliklar girdobiga giriftor etadi.

Bu borada fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbidan doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", – degan fikrlarini doimo yodda tutishimiz kerak.

Zero bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizning muhim ustuvor vazifalaridan biri har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishni taqozo etmoqda.

Aynan bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamidida xalqimizni mana shunday ezgu g'oyalari sari dadil odimlayotganligini teran anglashimiz mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "oldimizga qo'ygan

ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbasi bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" ekanligi shart qilib qo'yildi. Zero dunyo miqyosida globallashuvning shiddatli tus olishi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga oid muammolarning yanada dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.

Mafkuraviy xurujlar inson e'tiqodiga, turli din, millat va elatlar hamjihatligiga raxna solish orqali siyosiy ta'sir doirasiga olish vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bugungi kunda dunyoda shiddatli kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan ma'naviy-mafkuraviy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, dunyoning turli mintaqada davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko'rsatayotir.

Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisanlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayollik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada odamzod o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolmoqda. Mazkur holat jahondagi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bugungi tahlilka zamonda mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olayotgani ogoh, sezgir va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o'zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali "o'zgacha" mafkuralarni ongiga singdirishda namoyon bo'lmoqda.

Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undovchi mafkuraviy xurujlar doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, jamiyatda parokandalikni vujudga keltirish orqali bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliy irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga chaqiradigan yovuz g'oyalari mafkuraviy xurujlardir.

Shu o'rinda bu xurujlar muayyan kuchlar tomonidan kishilar qalbi va ongiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni teran anglagan holda g'oyaviy-mafkuraviy, ruhiy ta'sir o'tkazishda noan'anaviy va noxolis usullardan foydalanib, o'zlarining g'arazli maqsadlarini "puxta" rejalar asosida amalga oshirishini anglash lozim. Hozirgi paytda dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va jaholatparastlik, giyohvandlik, odam savdosi ham buzg'unchi g'oyalarga asoslangan. Buzg'unchi g'oyalari tasnifidan o'rin olgan yovuz qarashlar turli tarqalish doirasi va ta'sir kuchiga ega. Ayniqsa, dunyoda bo'layotgan turfa voqeahodisalar, tez o'zgarayotgan bugungi kunda hayot jarayoni ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin.

XXI asrga kelib mafkura poligonlarida o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi va prozelitizm harakatlari tobora kuchayayotganini aytib o'tish joiz. Mazkur harakatlar dunyo miqyosida din va diniy konfessiyalar o'rtasidagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'layotir. Bu esa g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik va prozelitizm to'g'risida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Missionerlik va prozelitizm zamirida o'zga mamlakatlarning davlat suverenitetiga, konstitutsiyaviy tuzumiga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosiy bosim va tajovuzlarni g'oyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yotadi. Boshqacha aytganda, bu ma'naviy-madaniy qadriyatlar hamda diniy vositalar orqali boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashuvdir.

Shu o'rinda o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni targ'ib etuvchi kosmopolitizm haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. **Kosmopolitizm** – (yunoncha, "kosmopolites" – "dunyo fuqarosi") g'oyasi asosida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, **"inson dunyo fuqarosi"** shiori asosida vatanparvarlik, davlatlar mustaqilligi, milliy madaniyat va ma'naviyat kabi qadriyatlarini inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ'ib qiluvchi dunyoqarash g'oyasini singdirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu g'oyaning asoschisi Aristotel bo'lib, Iskandar yurishlari davrida ildiz otgan. Kosmopolitizm milliy an'ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga – bevatanklikka da'vat etadi. Ayniqsa, hozir kosmopolitizm (*dunyo fuqarosi*) g'oyasi kuchayib bormoqda. Bunda milliy, diniy qadriyatlar, asriy an'analar tan olinmaydi. "Vatan", "millat", "milliy davlatchilik" tushunchalari eskirdi hammamiz bitta davlat, bitta hukumat tuzamiz, Vatanningi qo'y, dunyo fuqarosi bo'l", degan g'oya kosmopolitizmga tegishlidir.

**"Nigilizm"** lotincha nihil – "hech nima" – o'zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik ya'ni muayyan millat vakillarining o'z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o'z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlariga olib keladi. Nigilizm o'zida tarixiy hamda madaniy qadriyatlarini inkor etish orqali, umume'tirof etilgan qadriyatlariga nisbatan salbiy va o'ta tanqidiy munosabatlarda bo'lish orqali axloqiy tubanliklarni namoyon etib, o'zida buzg'unchilik g'oyalarni aks ettiradi. Ayniqsa, milliy nigilizm illatlari ta'siriga tushgan insonlarning mafkuraviy



immuniteti zaiflashishi oqibatida ularning qalbi va ongida o'zgacha dunyoqarash shakllanadi. Natijada, nigilizm ta'siriga tushgan kishilar Vatan manfaatini himoya qila olmaydigan befarq, loqayd odamlar sifatida gavdalanayotganligi achinarli va tashvishli holdir.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida kurashda maktabning o'rni alohida. Shu bois bugun yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasida keng ko'lamli islohotlar kechayotgani bejiz emas. **"Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari"** g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'yib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning **"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"**, degan so'zlarida teran ma'no mujassam. Zero har qanday davlat taraqqiyotining tamal toshi bevosita ta'lim masalalariga qaratilayotgan e'tibor bilan bog'liq.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob berish strategik vazifaga aylanmoqda. Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: **"Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi"**.

Shu o'rinda mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakatimizning milliy g'oyasi har birimizga kelajakka ishonch, madad, kuch-g'ayrat, shijoat berib, xalqimiz va millatimizni ulug'vor va bunyodkor ishlarga, Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo'lida birlashishga safarbar etadi. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, **"Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"**.

Binobarin, o'z milliy g'oyasiga ega davlat mustahkam, qudratli va obod bo'lishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim. Xulosa qilib aytganda, millatimiz ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy qayd etganidek: **"Yaxshi tarbiyalangan qalb va vijdon hech qachon egasini sharmanda qilib qo'ymaydi"**.

Zero bugungi davr va zamon shiddati har bir yurtdoshimizdan yoshlar tarbiyasi masalasida yanada jiddiy va teran fikrlashni taqozo etmoqda.

**Mansur MUSAYEV,**  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori (DSc)





## O'ZBEKISTON MUDOFAA VAZIRLIGI MERGANLARI MUTLAQ G'OLIB 5 YO'NALISH BO'YICHA REKORD YANGILANDI

Sir emaski, so'nggi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari yildan yilga rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbari boshchiligida mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Yangi harbiy qism va muassasalar tashkil topib, mavjudlarining moddiy texnik bazasi takomillashtirilmoqda.


Xususan, 2021-yilda ochilgan Mudofaa vazirligi Merganlarni tayyorlash markazi ham shunday muassasalardan biri. Ushbu markaz jamoasi boshchiligida ko'rsatilayotgan natijalar ham berilayotgan imkoniyat va e'tiborga munosib.

Xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ushbu markazdagi 20 ga yaqin o'quv joylari harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini yanada yuksalishiga xizmat qilyapti. Bu qarodosh Turkiya Respublikasida o'tkazilgan 11 davlatdan 36 ta jamoa ishtirok etgan "Eng ilg'or mergan" xalqaro musobaqasida ham o'z natijasini berdi.

Bahslarda Turkiya, AQSh, Birlashgan Arab Amirligi, Ozarbayjon, Pokiston, Bolgariya kabi dunyoning ilg'or armiyalari qatorida yurtimiz harbiylari ham har bir shartda munosib qatnashdi. Mutaxassislarning qayd etishicha, joriy yil barcha ishtirokchi davlatlar eng kuchli qurol, ballistik koeffitsiyenti yuqori bo'lgan o'q-dorilar va qurol-aslahalar hamda yuqori tayyorgarlikka ega merganlar bilan ishtirok etdi. Shuningdek, avvalgi yillardan farqli ravishda bu yil musobaqaga 3 ta tungi shart ham kiritilgan.

Xolis va shaffof tarzda o'tkazilgan musobaqaning yana bir muhim jihati hamma shartlar real jang sharoitlariga yaqinlashtirilgan va ishtirokchilardan o'zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, to'g'ri qaror qabul qilish va harakatlanishni talab qiladi. Shunga qaramasdan harbiylarimiz musobaqaning yuqori burchak ostida qiyalikdan o'q otish, yuqori burchak ostida tunda o'q otish, uzoq masofalarga o'q otish va tunda noma'lum masofalarga o'q otish singari mashqlarda yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishgan bo'lsa, orolni himoya qilish, vertolyotdan jangovar o'q otish, to'siqlar ortidan jangovar harakatlar bilan o'q otish, pistoletda to'siq ortidan va harakatlanib aniqlikka o'q otish va noqulay otish istehkomidan nishonlarni qidirib topib, o'q otish kabi jami 5 ta shartda musobaqa rekordlarini o'rnatdi. Xususan, 36 ta merganlar juftliklari orasida III darajali serjantlar Husniddin Mirzamatov va Olim Toshqorayev 5 marotaba rekord natija ko'rsatib, eng yuqori o'rinni egalladi.

– Musobaqada qo'lga kiritgan bu natijamiz avvalo, biz merganlarga yaratib berilgan shart-sharoitlar natijasi deb bilaman, – deydi mayor Shahboz Eshonqulov. – Musobaqa o'ziga yarasha qiyin kechdi. Chunki notanish hudud, ob-havoning injiqligi ta'sir o'tkazdi. Jamoamizdagi safdoshlarimizning yuqori professional tayyorgarligi va har bir shartdagi ko'rsatkichlari musobaqaning



yakuniy natijasida o'z aksini ko'rsatdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 2 697 ball bilan mutlaq g'olib bo'ldik. Kelgusida ham xalqaro maydonlarda Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilishga, O'zbekiston armiyasining kuch-qudratini butun dunyoga namoyish etishga doimo harakat qilamiz. Bu yo'lida hamisha o'z ustimizda ishlab, jismoniy hamda ruhiy tayyorgarligimizni oshirib boramiz.

Mezbon Turkiya 2 376 ball bilan 2-o'rinni egallagan bo'lsa, kuchli beshlikdan Bahrayn, Bolgariya va Pokiston jamoalari o'rin oldi.

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida musobaqa g'oliblarini rasmiy taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Unda mudofaa vaziri o'rinbosari polkovnik Qodirjon Tursunov ishtirok etib, musobaqa ishtirokchilarini mutlaq g'alabani qo'lga kiritganlari bilan muborakbod etdi. Ularga mudofaa vaziri nomidan esdalik sovg'alar topshirildi.

Ro'ziqul OCHILOV,  
"Vatanparvar"



# ENG MOHIRLAR ANIQLANDI

Turkiyada harbiy merganlar o'rtasida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada jamoamiz a'zolari faxrli 1-o'rinni egallab qaytdi. Qarang, birgina jumla. Nari borsa 20 soniyada ovoz chiqarib o'qisa bo'ladi. Lekin bunday natijaga erishish uchun nechta odam, qancha muddat ter to'kib mehnat qilishi kerak. Boz ustiga ular ushbu musobaqada 5 ta nominatsiya bo'yicha rekordni yangilashga muvaffaq bo'lgan.



Muallif suratga olgan



Bu kabi yutuqlar e'tirofi, aynan g'oliblarning o'zi bilan muloqot Toshkent harbiy okrugi "Chirchiq" dala-o'quv maydonida yig'ilgan "Kalibr" klubi a'zolarining ham g'ayrat-shijoatini oshirdi. Toshkent shahri, Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridan kelgan ishtirokchilar o'rtasidagi 4 ta nominatsiya bo'yicha musobaqalar qizg'in tusda o'tdi. Qatnashuvchilar kesimli (*nareznoy*) qurollardan uzoq va yaqin masofaga har xil istehkomlardan otish, TOZ-8 dan biatlon mashqi, silliqlik stvolli qurollardan otish bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, O'zbekiston ovchi va baliqchilar sport

birlashmasi tomonidan imzolangan o'zaro hamkorlik memorandumiga asosan "Kalibr" uzoq masofalarga o'q otish klubi ta'xis etilganidan sinchkov kuzatuvchilarimizning xabari bor, albatta.

"Kalibr" klubi "Vatanparvar" tashkilotining respublika texnik va amaliy sport turlari markazi qoshida tashkil etilgan bo'lib, klubning asosiy maqsadi ov va uzoq masofalarga o'q otish sporti havaskorlari, O'zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi bilan hamkorlikni mustahkamlash, ilg'or tajriba almashish hamda respublika hududida uzoq masofalarga o'q otishni ommalashtirishdir.

"Kalibr" uzoq masofalarga o'q otish klubi nizomiga muvofiq, ushbu

klubga faqatgina O'zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasiga a'zo bo'lgan (*qurol olib yurishga haqli*) fuqarolar qabul qilinadi. Birlashma niqoblanish, joyga moslashish, oriyentirlanish, qiyin sharoitlarda yashovchanlik borasidagi o'z tajriba va ko'nikmalarini harbiy xizmatchilarga o'rgatish bo'yicha mahorat darslari o'tib borishi belgilangan.

"Kalibr" klubi a'zolari o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqaning yakuniy natijasiga ko'ra, kesimli qurollardan uzoq masofaga har xil istehkomlardan otish nominatsiyasida Izatulla Sanamullayev (*Sirdaryo viloyati*), kesimli qurollardan yaqin masofaga har xil istehkomlardan otish nominatsiyasida Behruz Abdushukurov (*Toshkent shahri*), TOZ-8 dan biatlon mashqi

nominatsiyasida Jasur Niyozov (*Toshkent viloyati*), silliqlik stvolli qurollardan otish bo'yicha G'ulom Sayidqulov (*Sirdaryo viloyati*) 1-o'rinni qo'lga kirittdi.

Umumjamoa hisobida Sirdaryo viloyati 1-, Toshkent viloyati 2-, Toshkent shahri 3-o'rinni egalladi. Izatulla Sanamullayev (*Sirdaryo viloyati*) "Eng mohir mergan" nominatsiyasining ham g'olibi deb topildi.

G'olib va sovrindorlarga Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Zokirjon Sayfudinov tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

**Mayor Aziz NORQULOV,**  
"Vatanparvar"

## MERGAN OVCHILAR BELLASHUVI

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli "Yangiariq" umumqo'shin poligonida "Kalibr" klubi a'zolari bilan "Eng mohir ovchi" musobaqasining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi.



Unda 100 nafarga yaqin xorazmlik malakali va havaskor ovchilar ishtirok etib, kesimli (*nareznoy*) qurollardan uzoq va o'rta masofaga har xil istehkomlardan otish, silliqlik stvolli stand sport otish hamda kichik kalibrli sport miltilg'i TOZ-8 dan aniqlikka otish shartlarida bellashdi.

Xorazmlik sara ovchilarni jamlagan "Kalibr" klubining navbatdagi musobaqasi ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar"



tashkiloti Xorazm viloyati kengashi hamda ovchi va baliqchilar sport birlashmasi viloyat bo'limi rahbariyati, harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Musobaqa shartiga ko'ra, har bir klub a'zosi o'zining ov qurollari bilan bellashuvda qatnashishi, nizom

qoidalarini hamda xavfsizlik talablariga zid harakatlarni amalga oshirganda jarima ballarini qo'llash yoki bellashuvdan chetlashtirilishi o'rin olgan.

Kuchli raqobat muhitini yaratib bergan bellashuv qizg'in bahslarga boy o'tib, ovchilarning merganlik bobidagi mahoratlarini sayqallashga, tajriba almashish va malaka oshirish imkonini yaratgani bilan qizg'in kechdi.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindor klub a'zolari tashkilotchilar tomonidan diplom, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**



# “MEN VATAN POSBONIMAN!”



G'urur va iftixor-la ayta olamizki, yoshlarimiz uchun mamlakatimiz Qurolli Kuchlari saflarida xizmat qilish nafaqat konstitutsion burch, balki yuksak maqsad, tom ma'nodagi shon-sharaf ishiga aylanmoqda. Armiyada ular harbiy ixtisosliklarni puxta egallash bilan bir vaqtda, jismoniy va ma'naviy jihatdan chiniqib, irodasi toblanib, hayotiy qarashlari shakllanmoqda. Vatan himoyasi yo'lida doimo tayyor mard va jasur insonlar bo'lib kamol topmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda harbiy kasb nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilar, chaqiruvgacha bo'lgan yoshlarning ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini shakllantirish maqsadida Vatanga muhabbat, ajdodlar jasorati va burchga sadoqat tuyg'ularini ifoda etuvchi badiiy asarlar namunalarini jamlanib, "Men albatta harbiy bo'laman!" va "Men Vatan posboniman!" nomli kitoblar chop etildi.

To'plamdan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan qiziqarli ocherk va hikoyalar o'rin olgan. Ajdodlarga munosib voris bo'lish, ular kabi jasoratli va mahoratli harbiy bo'lib yetishish bu sohaga qiziqqan barcha

yoshlarni ko'proq ilm olishga, kitob o'qishga chorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida Mudofaa vazirligi hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda nashrga tayyorlangan "Men albatta harbiy bo'laman!" va "Men Vatan posboniman!" kitoblarining taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid va boshqalar ushbu kitoblarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan qiziqarli ocherk va hikoyalari o'rin olganligi hamda bu sohaga qiziqqan



barcha yoshlarni ilm olishga, kitob o'qishga chorlashi to'g'risida so'z yuritdi.

She'riy asarlari, ocherk va hikoyalari ushbu kitobdan joy olgan mualliflardan "Vatanparvar" gazetasi tahririyati bo'lim boshlig'i katta leytenant Islomjon Qo'chqorov mazkur kitoblar to'g'risida fikr bildirarkan, sara ijod namunalarini yoshlarning qalbida yurt himoyasiga shaylik va jangovarlikni oshirishini aytib o'tdi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining musiqali chiqishlari tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"







# IFTIXOR MASKANI BITIRUVCHILARI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalarida bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz uchun 30 dan ortiq mutaxassislik bo'yicha yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlanmoqda. Shu kunlarda ularning bir guruhi egallangan bilim va ko'nikmalar bo'yicha bitiruv davlat imtihonlarini topshirmoqda.



O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasi mamlakatimizdagi yetakchi oliy harbiy ta'lim muassasasi bo'lib, so'nggi yillarda o'tkazilgan keng qamrovli islohotlar doirasida tom ma'noda harbiy ilm-fan markaziga aylandi. Akademiyada yosh ofitserlarni tayyorlash, qo'shinlarda xizmat o'tayotgan ofitserlar malakasini oshirish, shuningdek boshqaruv tarkibidagi qo'mondonlik kadrlarini maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish, harbiy-ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Mazkur vazifalarni bajarish

uchun ta'lim jarayoniga eng yangi usul va texnologiyalar joriy etilib, o'quv auditoriyalari zamonaviy trenajyorlar, o'quv va laboratoriya asbob-uskunalar va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan, barcha mutaxassisliklarning amaliyoti uchun mukammal dala mashqlari maydonlari barpo etilgan.

Joriy yilda Qurolli Kuchlar akademiyasining 4-bosqich kursantlari motoo'qchi va chegara bo'linmalari taktik qo'mondonligi, qo'shinlar razvedkasi taktik qo'mondonligi,

chegara qo'shinlari taktik qo'mondonligi, front orti ta'minoti taktik qo'mondonligi, muhandislik qo'shinlari taktik qo'mondonligi kabi 11 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitirmoqda.

Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida tug'ilgan Ulug'bek Rustamov to'rt yil qo'shinlar razvedkasi taktik qo'mondonligi yo'nalishida tahsil oldi. U bitiruv imtihonlarini topshirar ekan, akademiya o'tgan to'rt yillik qizg'in hayoti ko'z o'ngida gavdalanadi.

– Nihoyat maqsadimga erishish uchun bir qadam qoldi. Hademay bolaligimdan orzu qilganim ilk ofitserlik unvonini yelkamga taqaman. Bu men uchun sharaf. To'rt yil davomida menga bergan saboqlari uchun ustozlarimdan minnatdorman. Ularning talabchanligi, meni katta marralar sari undashi tufayli o'qish davrida bir necha musobaqalarda faxrli o'rinlarni egalladim. 2023-yilning yozida Termizda razvedka bo'linmalari o'rtasida o'tkazilgan "Jangovar birodarlik" musobaqasida qatnashib, jamoamiz bilan 3-o'ringa sazovor bo'ldik. Shuningdek, o'tgan yillar davomida harbiy xizmatchilar o'rtasida bir qator mutaxassisliklar bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda, xususan safdoshlarim bilan mutaxassis sapyorlar orasida 1-o'rin, mutaxassis plummyotchilar orasida 2-o'rin, mutaxassis merganlar orasida 3-o'rinni qo'lga kiritdik. Bu musobaqalarda qatnashib shuni angladimki, yurt tinchligi va mustaqilligini ishonchli himoya qilish tinimsiz mehnatni, izlanishni, mardlik va jasoratni talab qilish bilan birga harbiy sohadagi eng ilg'or tajribalarni o'rganishni va amaliyotga tatbiq etishni ham taqozo etarkan. Kelgusi xizmatim davomida

kasbimni yanada mustahkam egallab, faqat ilg'orlar safida bo'lishni maqsad qilganman.

Ulug'bekning safdoshi Og'abek Eshquvvatov ham kursantlik davrini, yakuniy bitiruv imtihonlarini a'lo baholar bilan yakunlamoqda. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani Chuqurko'l qishlog'ida ziyolilar oilasida voyaga yetgan bu yigit o'qish davrida ingliz va rus tillarini ham mukammal egalladi. Front orti ta'minoti taktik qo'mondonligi mutaxassisligi bo'yicha tahsil olgan Og'abekning ham rejaları, maqsadlari bisyor.

– Biz to'rt yil mobaynida eng yangi usul va texnologiyalar joriy etilgan, o'quv auditoriyalari zamonaviy trenajyorlar, o'quv va laboratoriya asbob-uskunalar va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan sharoitda, shuningdek bugungi shiddatli zamon harbiy harakatlari xususiyatlarini, harbiy san'at rivoji tendensiyalarini o'zida aks ettirgan dala-o'quv mashqlarida ta'lim oldik. Shu vaqt mobaynida metin harbiy intizomga rioya qilib, ko'p yillik tajribaga ega ustozlar ko'magida Vatan himoyachisi – harbiy bo'lib shakllandik. Men Qurolli Kuchlar akademiyasini tom ma'nodagi iftixor maskani, deb atagim keladi. Chunki bu yerda har bir kursantning mahorati, bilim va ko'nikmasini oshirish, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish ishlari uyg'un holda olib borildi. Bugun umumqo'shin fakultetining bakalavriat bosqichini tugatayotgan bo'lsak, kelgusida qo'mondonlik-shtab fakultetida magistratura yo'nalishida ham o'qish niyatim bor.

**Furqat ERGASHEV**





Chegara qo'shinlarida

UCHRASHUVI

UCH AVLOD



## KO'TARINKI RUHDA O'TDI

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida faxriylarni e'zozlash, ularga hurmat-ehтиrom ko'rsatib, soha taraqqiyotida o'zining salmoqli hissasini qo'shgan tajribali ustozlar hamda faxriylar ishtirokidagi "Uch avlod uchrashuvi" tadbirini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib bormoqda.



amalg oshirgan ishlari hamda olib borilgan islohotlar xususida to'xtalib, qiziqarli hikoyalarni so'zlash bilan birga, yoshlarga o'zlarining pand-nasihatlarini ham aytib o'tdilar.

O'z o'rnida, kelajagimiz bunyodkorlari ham faxriylarimizning ibratli hayot yo'li, o'g'itlari va yo'llangan savollariga javoblaridan o'zlari uchun ko'plab yangi ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ldi.

Ana shunday ezgu maqsadlarni ko'zlagan navbatdagi "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlariga Farg'ona viloyatida joylashgan bo'linmalar harbiylari mezbonlik qildi.

Farg'ona xalqaro aeroportida kutib olingan mehmonlar 3 kun davomida viloyatdagi Chegarani qo'riqlash vuzvodlarida bo'lib, davlat chegarasi daxlsizligini ta'minlayotgan shaxsiy tarkibning samarali xizmat olib borishi, munosib hayot kechirib, ilmiy va ijodiy salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar bilan yaqindan tanishdi.

Tadbirning birinchi kunida O'zbekiston, Rishton va Quvasoy tumanlaridagi bo'linmalarda qo'riqlash tizimiga joriy etilayotgan yangi innovatsion texnologiyalar, harbiy texnikalar, infratuzilmasi yangilanayotgan harbiy shaharchalar hamda ularda yaratilayotgan sharoitlar, bir so'z bilan aytganda, islohotlar samarasiga guvoh bo'lgan DXX Chegara qo'shinlari faxriy qo'mondonlari va ustoz faxriylar kelgusida mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish borasida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Harbiylarning oilalari istiqomat qilayotgan xizmat xonadonlaridagi sharoitlar, oila bekalarining bandligini ta'minlash uchun tikuvchilik va qandolat sexlari faoliyati yo'lga qo'yilgani, shuningdek farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish uchun tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda olib borilayotgan ishlar ham barchani birdek quvontirdi. Ushbu

maskanlarda mehmonlar tomonidan bolajonlarga turli sovg'alar ulashildi.

Navbatdagi manzil So'x tumani bo'ldi. "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri o'tkaziladigan hudud sifatida aynan shu manzil belgilanib, mehmonlar dastlab bu yerda faoliyat olib borayotgan sarhadlarimiz posbonlari va ularning oila a'zolari, shuningdek mahalliy aholi vakillari bilan suhbatlashdi.

Samimiy suhbatlar davomida bugun Yangi O'zbekiston o'z oldiga yuksak marralar, buyuk maqsad va rejalarini qo'yar ekan, hurmatli Prezidentimiz boshchiligida olib borilayotgan ochiq va faol tashqi siyosat jarayonida "Qo'shni davlatlar bilan o'rtamizda chegara emas, balki do'stlik darvozalari bo'ladi" degan ezgu g'oyaning amaldagi ifodasi sifatida 2023-yilning 1-sentabr kundan boshlab O'zbekiston fuqarolari Qirg'izistonga, xuddi shunday Qirg'iziston fuqarolari O'zbekistonga ID karta bilan kirish imkoniyatiga ega bo'lgani, ikki davlat rahbarlarining yuksak siyosiy irodasini namoyon etishi barobarida, qardosh xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirish va birlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etayotgani, Davlat chegarasidan o'tish tizimi soddalashtirilib, fuqarolarga katta qulayliklar yaratilayotgani ta'kidlab o'tildi.

Har bir manzilda ko'tarinki kayfiyat va shukronalik hissi bilan kutib olingan mehmonlar, chegarachilar hamda ularning oila a'zolari bilan o'tkazilgan davra suhbatlari chog'ida bu kabi sharoitlardan unumli foydalanish va yurt taqdiriga

daxldorlik hissi bilan yashash kerakligi xususida to'xtalgan bo'lsalar, yosh harbiy xizmatchilarga Vatan ostonasini himoya qilish sharafli burch ekani va bu yo'lda har qanday mashaqqatni sabot bilan yengib o'tish zarurligi tushuntirildi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan mustaqillik yillarida o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan qahramon chegarachilar xotirasiga hurmat bajo keltirilgach, "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri boshlandi. Bir vaqtning o'zida respublikamizning barcha viloyatlaridagi bo'linmalarni jalb etgan holda onlayn videomuloqot tarzida o'tkazilgan mazkur uchrashuvda DXX va Qurolli Kuchlar akademiyalari kursantlari, DXX "Temurbeklar maktabi" hamda "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi o'quvchilari, viloyatning chegaraldi maktablarida tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublari a'zolari, shuningdek askarlar, serjant va ofitserlar ishtirok etdi.

Tadbir avvalida DXX raisi o'rinbosari - Chegara qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Salimjon Xusanov tomonidan avlodlar vorisligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi ushbu tadbirning mazmun-mohiyati va yoshlar tarbiyasidagi o'rni xususida so'z yuritilgach, so'nggi yillarda Chegara qo'shinlarida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida hikoya qiluvchi videolavha yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi.

Qizg'in savol-javoblarga boy tarzda kechgan samimiy suhbat chog'ida esa faxriy qo'mondonlar o'z xizmat va hayot tajribalari, rahbarlik davrlarida

Shu kuni jangovar xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan, Vatanga sadoqatli, harbiy mahoratni mukammal egallagan, yuqori intizomli bir guruh harbiy xizmatchilar hamda xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan va nogironlik orttirgan harbiylarning farzandlariga 5 foizli kvota asosida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlari uchun imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish marosimi ham bo'lib o'tdi.

Tashrifning uchinchi kunida mehmonlar so'lim Shohimardon qishlog'ining go'zal tabiatidan bahramand bo'lib, qadamjolari bilan tanishish barobarida, bu yerda istiqomat qilayotgan sarhadlarimiz posbonlari va ularning oila a'zolari holidan ham xabar oldi.

Yakuniy manzil Quvasoy tumanida joylashgan "Sho'rsuv" o'quv markazi bo'ldi. Mehmonlar bu yerda harbiylarning ta'lim olishi, o'z ustida ishlab, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirib borishi uchun yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan boyitilgan o'quv xonalari, ko'rgazmali vositalar, shuningdek ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan yangi usul va vositalar bilan ham yaqindan tanishdi.

Bir so'z bilan aytganda, Farg'ona viloyatida tashkil etilgan keng qamrovli "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari samimiy suhbatlar, yorqin taassurotlar va fikr-mulohazalarga boy tarzda o'tdi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



# ESKI QOLIPLARNI SINDIRGAN



Jahon kinosida tarixiy filmlarning roli va ahamiyati shu qadar muhimki, unda nafaqat sanoat va san'at, balki millat qadriyatlarini va qahramonlari ham dunyoga chiqadi. Bir paytlar "Sheryurak" filmi orqali Shotlandiya tarixiga bemisli qiziqish uyg'otgan Uilyam Uolles timsoli hali-hamon qalblarda yashayotganini e'tiborga olsak, tarixiy kartinalarning o'rini chuqurroq his qilish mumkin.

Shu kungacha o'zbek kinosida ham ko'plab tarixiy filmlar suratga olingan bo'lsa-da, ularning aksariyati jahon standartlari darajasida emasligi tomoshabinlar tomonidan bot-bot tilga olinadi. Ammo kuni kecha premyerasi bo'lib o'tgan "Bahodir Yalangto'sh" filmi ongimizdagi ushbu qoliplarni parchalagandek taassurot qoldirdi. Biz gazetamiz orqali ayrim mutaxassislarining kartina haqidagi fikrlarini jamlashga urindik...

**Shahnoza SOATOVA, jamoatchilik faoli:**

Birinchi xulosa shuki, nihoyat bizda tarixiy filmlar yo'nalishida tajribalar bosqichi tugab, haqiqiy filmlarni suratga olish bosqichi boshlanibdi. Har holda, "Bahodir Yalangto'sh" haqiqiy to'laqonli, qiziqarli va ta'sirli tarixiy film.

**Birinchiidan**, tarixiy filmlarga xos keng miqyos, epiklik, ta'sirchanlik va ko'rimlilik bor. Katta ekranda ko'rganimizga balki bu ta'sir yanada kuchliroq bo'ldi. Qorong'ida, yomg'irli, loyli va shiddatli janglar, mahobatli saroylar, qimmatbaho kostyumlar, soch turmaklari, ommaviy sahnalar ekrandan oldingizgacha chiqib kelgandek bo'ldi.

**Ikkinchiidan**, aktyorlar. Juda chiroyli vizuallik borki, yangi qiyofalar u yoqda tursin, tanish va sevimli aktyorlar ham yangicha ko'rinadi. Qozog'istondan jalb qilingan aktrisa – TOP! Yana Bahodir Yalangto'shning o'g'li Boybek obrazini yaratgan aktyor qiyofasidagi bo'rtiqlik, joziba va hissiylik uncha-muncha turk kinoyulduzlaridan afzal ko'rindi.

**Uchinchiidan**, ssenariy. Ssenariy mualliflari Hasan Toshxo'jayev va Jahongir Ahmedov bitta yo'llik syujetdan ham keng miqyosli qiziqarli film qila olishgan. Keyinroq tarixiy filmlarimiz epik janr talablariga ko'ra, ko'p yo'llik syujet tipida ham namoyon bo'lishiga umid qilamiz. Lekin bu muhimmas. Muhimi, 2 soat-20 daqiqa zaldan hech kim chiqib ketmagani, turli epizodlar qarsaklar bilan kutib olingani. Ayniqsa,

dialoglarni alohida ta'kidlash lozim. Men odatdagi tarixiy filmlarimizdagi arxaizmlarga to'la uzun va hissiz jummalarni kutgandim. Balki shungami, ko'p o'rinlarda qisqa, zarbali, aforizmsifat o'tkir gaplar yoqimli syurpriz bo'ldi.

**To'rtinchidan**, eng asosiysi – film g'oyasi. Yaxshigina jangnoma va siyosatnoma bo'libdi. Ikkita asosiy g'oyani ta'kidlamochim.

**Birinchi**, hokimiyat, saroyda doim fitnalar bo'ladi. Taxtga qanchalik yaqinlashgan sayin fitnalar shunchalik jiddiy. Bunda sadoqat taqchil, og'a-inilik ham bekor. Eng oliy mansabdagi odamning do'sti ham juda kam bo'lar ekan. Faqat adolatli siyosat yuritsa, hukmdorga xalq do'st bo'lishi mumkin, vaqti kelsa, siyosiy fitnalardan ham faqat xalq qutqara oladi, agar hukmdor odil va xalqparvar bo'lsa.

**Ikkinchi mujda** – ichki dushmanlar. Ashtarxoniyalarni mag'lub qilgan asosiy dushman jung'orlar emas, balki ichki bo'linish. Hamjihatik yo'qligi uchun sulola sindi. Bizga katta saboq bo'lishi kerakki, adolat va hamjihatik bo'lmasa, davlatchilikka putur yetadi. O'zimizning do'stimiz ham, dushmanimiz ham o'zimiz!

**Sharofiddin TO'LAGANOV, jurnalist:**

Shahnoza Soatovaning fikrlariga to'la qo'shilaman. Ayniqsa, "Sheryurak"ka o'xshatib bo'lmasligi borasidagi fikrlari to'ppa-to'g'ri. "Bahodir Yalangto'sh" filmi "Amir Temur" filmidan yaxshi ishlangan.

Ammo filmida bir kadr bor. Bahodir Yalangto'sh jung'orlar ustidan g'alaba qozongandan keyin bu voqea yon-atrofdagi davlatlarda keng muhokama qilinadi.

Shunda 10 soniyaga ham bormaydigan kadrlarga ko'zim tushib qoldi.

Xitoy va Rus davlatlari ko'rsatilganida o'sha davlatlar hukmdorlarining saroylariga ko'zingiz tushadi (*Rus saroyi xuddi Kremлга o'xshab ketgandek bo'ldi*).

Xitoy saroylariga e'tiroz yo'q. Ammo XVI asrda Rus davlatida hashamdor saroylar yo'q edi. Saroylar Pyotr I dan keyin

qurila boshlangan. (*To'g'ri, Rus davlatini ko'rsatish uchun ham hashamatli qasrlar ko'rsatilgandir, ammo podsholari u qadar qudratli bo'lmagandi, ular mute edi, kinoda ana shu mutelik ko'rsatilishi kerak edi*).

Yuqoridagi fikrlar tomosha jarayonida xayolinga keldi. Endi do'ppini boshdan olib o'ylab qararasam, go'yoki hozirgi global siyosat kadrlarga ko'chmadimikan, degan fikrga keldim. Shuningdek, saroy o'yinlari yaxshi ochib berilgan.

Yana bir e'tiroz Bahodir Yalangto'sh tomonidan jung'or malikasi (*to'g'rirog'i mo'g'ullar xonining qizi*)ni asir sifatida olib kelinishi "Mendirman Jaloliddin" serialidagi sahnalarni eslatib yuborgandek bo'ldi.

**Rasul KUSHERBAYEV, jamoatchilik faoli:**

Tarixiy filmlarning muhim qismini jang sahnalari tashkil qiladi. Sen shu mavzuga qo'l urdingmi suratga olish juda katta mashaqqat talab etadigan ommaviy sahnalarga tayyor bo'lishing kerak.

**Buyuk sardor va sarkarda Bahodir Yalangto'sh haqida Prezident tashabbusi bilan ishlangan film premyerasidan so'ng o'zimiznikilar ham jang sahnalarini qoyillatib suratga olishi mumkinligiga amin bo'ldim.** Gollivud filmlarida ko'rib yurgan ajoyib sahnalarimizni o'zimizning kinochilar ham olishiga ishonдим.

Aytganicha, "Bahodir Yalangto'sh" filmi Samarqandda 3,5 ming muxlis ishtirokida katta premyera qilindi. Albatta, kinoni tomosha qilish, o'zbek filmlari rivojlanishiga o'zimiz ham hissa qo'shishimiz zarur. Ayniqsa, so'nggi yillarda olingan bunday katta masshtabli tarixiy-badiiy film ajoyib ma'naviy ozuqa bo'la oladi.

**Eldar ASANOV, jurnalist, blogger:**

Sovet filmlarida (*mustaqillik davrida bu haqda filmlar olinganini eslolmadim, "O'tkan kunlar"dan tashqari*) xonlik davri o'ta qoloq qilib tasvirlanadi: hamma yoq kulba, shaharlar vayrona, xonlar, amaldorlar "tupoy", karikaturali, johil, qo'rqoq, na siyosatni tushunadi, na jang qilishni biladi. Tabiiyki, xonliklar SSSRning tirik va to'g'ridan to'g'ri raqiblari bo'lgan, shunga propaganda ularni maksimal darajada yerga urishga harakat qilgan. "Qora kunlar", "Amir Temur"dan so'ng mintaqa orqada qolib ketgan" degan stereotip gaplar o'sha propagandaning qoldiqlaridir.

**"Bahodir Yalangto'sh"da esa, aksincha, xonlik davri juda yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan: go'zal saroylar, ulkan qo'shinlar, buyuk**

**sarkardalar, o'ta aqlli, uzoqni ko'ra oladigan xonlar va boshqa siyosatchilar.**

Haqiqat o'rtaroqda: xonliklar davri SSSRda tasvirlanganday qoloq bo'lmagan, xonlar va qushbegilar yoppasiga saroydan tashqarini ko'ra olmaydigan galvarslar bo'lmagan; ayni paytda XVII asrdan so'ng ortga ketish boshlangan, har sohada sifat buzilishi boshlangan. Lekin baribir xonliklarda o'qimishli odamlar bo'lgan, xonlar, saroy ahli siyosatni, davlat boshqaruvini tushungan, diplomatiya yuritgan, turli davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan, ichki boshqaruvda o'ziga yarasha tartib bo'lgan, xullas inqirozga yuz tutib kelayotgan, ammo ma'lum an'ana, tartib-intizom saqlanayotgan davlatlar bo'lgan.

Odatda men tarixiy shaxslarni bo'rttirib, kam-ko'stsiz qilib tasvirlashlariga qarshiman: Temurning ham, Navoiyning ham, boshqasining ham kamchiligi bo'lgan, hech kim doim jiddiy yurib, ufqqa o'ychan termiladigan, nuqul buyuk materiyalarni o'ylaydigan odam bo'lmagan: hamma hazillashgan, kulgan, yig'lagan, xato qilgan, eringan, yutqizgan, nimanidir tushunmagan, xullas oddiy odam bo'lgan.

Lekin bu safar teskari vaziyat – odatda karikaturali qilib johil va qo'rqoq qilib tasvirlanadiganlar juda oliyjanob, mard va aqlli qilib ko'rsatilgan. Shu bois "Bahodir Yalangto'sh" filmida kam-ko'stsiz obrazlar qaysidir ma'noda dekonstruksiya bo'lib xizmat qilyapti – eski stereotiplarni sindiryapti. Shunga bu safar me'damga tegmadi, uquvsiz propaganda bo'lib tuyulmadi.

**Film bir ko'rishda yoqdi – dinamika joyida, ekshn zo'r, grafika sal bilinib qolgan-u, o'zbek kinematografiya uchun juda yaxshi, saundtreklar kutilmagan darajada chiroyli va esda qoladigan, syujet mantiqli.** Lekin kamchilik ham ko'p. Bir qismini kechirsa bo'ladi, lekin kechirilmaydiganlar ham bor.

Ammo film baribir yaxshi – qozoqlarning tarixiy filmlari, xususan "To'maris"dan sakkiz baravarlar yaxshi chiqqan (*o'zi qozoq tarixiy filmlari juda sifatsiz, nega ilgari ularga havas qilardik, bilmadim, shunchaki shunday filmlari borligi uchun shekilli*). Umuman, mintaqa kinosi uchun yutuq deb baholasa bo'ladi.

**Nurbek ALIMOV, blogger:**

Film premyerasidan yaqinda chiqdim. Ilk taassurotlarim juda yaxshi. Ayniqsa, ovoz (*zvuk*) saundtreklar, go'zal rassomlik ishlari e'tiborimni tortdi. Aktyorlar mahorati, epik janglar, dialoglar ham yuqori darajada. Nahot bizdayam shunday film ishlash mumkin devordim. Ayniqsa, syujet liniyasi doim oqsagan bizni filmlarda bu o'ziga xos yangilik bo'ldi. Tanqid qilishga ham yetarli joylari bor. Masalan, bosh qahramonning yoshlikdagi bek-raundi ochilmagan va eng oxirgi jang sahnasidagi sloumoning ko'proq ishlatilishi.

**Umuman olganda esa film juda zo'r emotsiyalar berdi, syujet dinamikasi tomoshabinni oxirigacha ushlab turadi, buni amfiteatrdagi odamlarning 90 foizi soat 23 gacha ketib qolmasdan oxirigacha ko'rganidan ham anglash mumkin.** Saroy intrigalari zo'r ko'rsatilgan. Tungi janglar, yonayotgan paykonlarning uchishdagi vizual effektlari lol qoldirdi. Blogger Nozim Safarining ta'kidlashicha, **"Amir Bahodir Yalangto'sh" tarixiy filmning jang sahnalari "Nomad Stan's" xalqaro kaskadyorlar jamoasi ishtirokida suratga olindi.**

"Nomad Stan's" jamoasi xalqaro kaskadyorlar akademiyasi mukofoti "Taurus" (*kaskadyorlar Oskari*)ga sazovor bo'lgan.

Jamoa ko'plab Gollivud filmlarida jang sahnalarini qo'yishda ishlagan bo'lib, ularning so'ngisi rejissyor va prodyuser Ridli Skottning "Napoleon" filmi hisoblanadi.

**Bobur ELMURODOV tayyorladi.**



# YOVQUR YURAK BILAN KELGAN YIGITLAR



Biz doim millat qahramonlari bilan faxrlanib kelgan xalqimiz. Farzandlarimizga Bahodir, Qahramon, Botir, Jasur, Alpomish deya ism qo'yib, shunga monand alp yigit bo'lishlariga umid bog'laganmiz.

Bugun sizga tanishtirmoqchi bo'lgan o'g'lonlarimiz Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining muddatli harbiy xizmatchiligidir.

## ARMIYA HAYOTI BEGONA EMAS

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Shohrux Salimboyev Namangan viloyatining Pop tumani G'urumsaroy qishlog'ida tug'ilgan. Namangan davlat universitetining Jismoniy madaniyat fakultetini tamomlagan. "Qo'qon-1912" yoshlar futbol jamoasi a'zosi bo'lgan. Xizmatga qadar o'zi tahsil olgan futbol maktabida murabbiy bo'lib faoliyat yuritgan.

– Bolaligimda juda sho'x bo'lganman. O'sha paytlari dadam "Armiya seni odam qilmasa, boshqasini bilmadim", deb kulib qo'yardi. Aslida, armiya hayoti men uchun begona emas, onam harbiy xizmatchi bo'lgan. Bolaligimda harbiy qismga ko'p borganman. O'zim tengi do'stlarim bilan futbol o'ynar edik. Keyinchalik ota-onam mendagi sportga bo'lgan ishtiyoqni sezib, futbol maktabiga o'qishga berishgan. So'ngra futbol akademiyasida tahsil oldim. O'sha kezlari futbolni tashlab ketmoqchi ham bo'lganman, shunda onam "Yigit kishiga omad uch marotaba beriladi, futbol akademiyasiga kirishing, sening omading, hozir qiyinchilikka chidolmasang, ertaga oila qurganingdagi sinovlarga qanday dosh berasan", deb koyib bergan. Onam mehribon va qattiqqo'l ayol edi. Juda uyalib ketganman. Hozirgacha biror narsadan hafsalam pir bo'lsa, onamning

o'sha so'zlarini eslayman-da, yana ishtiyoq bilan ishga kirishaman.

Namangan davlat universitetiga futbolda erishgan yutuqlarim ortidan imtiyozli ravishda talabalikka qabul qilinganman. Oltin davrimda ham "Qo'qon-1912" yoshlar futbol jamoasida to'p surdim. Sport bilan armiya bir-biriga juda yaqin bo'lganligi uchun men harbiy xizmatga juda tez moslashdim. Erta tongda uyg'onish, ijtimoiy tarmoqlardan uzilib qolish ko'pchilikni sarosimaga solganini ko'rdim. Lekin bu holatlar menda osonroq kechdi. To'g'risi, armiya bizga haqiqiy hayot maktabi bo'ldi. O'qimaganimizni o'qitdi, bilmaganimizni o'rgatdi. Bo'sh vaqtlarim kutubxonada o'tadigan bo'ldi. Muhammad Yusuf she'rilarini yoqtiraman. Hozir Iqbol Mirzoning "Seni bugun ko'rmasam bo'lmas" nomli she'riy to'plamini o'qiyapman.

## HARBIY LIBOS – KATTA MAS'ULIYAT

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Ibratjon Mahmudov ham Pop tumanining O'rta Xonobod qishlog'ida tug'ilgan. Farg'ona politexnika institutining Yengil sanoat va to'qimachilik fakultetini tamomlagan. Xizmatga qadar o'rta maktabda iqtisod fani o'qituvchisi hamda yoshlar yetakchisi bo'lib faoliyat olib borgan.

– Qishlog'imiz shahardan ancha olis, tuman markazidan ham 40 chaqirim uzoqda joylashgan. Bizning yerlarda harbiy xizmatga borganlarga katta hurmat bilan qarashadi. Qo'shnimiz Orif aka armiyadan kelganida 6 yoshda edim. Beretkasini boshimga kiydirib, yelkamga qoqib qo'ygani hozirgacha yodimda. Menimcha, o'sha kunlari dilimga harbiy hayot ishq solingan. Institutni tamomlab, maktabda o'qituvchi bo'lib ishga tushganimda ham bu cho'g' so'nmadi. Harakatdan to'xtamadim. Harbiy libos kiygandagi birinchi holatimni sizga tasvirlab berolmayman. Qancha orzu qilganimni o'zim bilaman, onam biladi. Negaki, bu oddiy libos emas, u katta mas'uliyat. Uning ortida Prezident, xalq ishonchi turibdi. Vatanga qasamyod matnini yuragimdan o'tkazib o'qidim, ko'zlarimga yosh keldi.

Ushbu muqaddas ont bizni bir-birimizga bog'ladi, safdoshlarimiz bilan tug'ishganlarday yaqinlashtirdi.

Mandikoning "Dunyoning eng buyuk savdogari" kitobida shunday so'zlar bor: "Boshlasang hozir boshla, agarda hozir boshlamasang ertaga kech bo'ladi". Armiya ham bizga bugungi ishni ertaga qoldirmaslikni o'rgatyapti.

## ORZUM – MI-29 DA UCHISH

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Nodirjon Axmatov Jizzax viloyatining G'allaorol tumani Ko'kbuloq qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent moliya institutini tamomlagan. Xizmatga qadar Jizzax shahar Milliy bankida kredit bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat olib borgan.

– Termanning "Cho'l burguti" asarini o'qiganmisiz? Asar qahramonining vujudida bo'ri yashaydi. Ota-onasi bolaning bunday tug'ilganini uch yoshga to'lganida payqab qoladi. To'g'ri, bu fantastik asar, albatta. Lekin bugun oramizda haligacha o'zini qidirib, o'zi bilan o'zi kurashib kelayotgan insonlar uchrab turadi. Bulardan biri men. Iqtisodchi bo'lishim, ota-onamning orzusi edi. Farzand sifatida ularning niyatlarini amalga oshirdim. Lekin vujudimdagi ikkinchi yarmim – bu uchuvchi. Ishda barmoqlarim hisob toshlarini o'ynatsa, xayolim MI-29, SU-25 da. Men 4 yil Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtiga imtihon topshirganman. Ishonasizmi?! Eng alam qilgani 3-4 ball tavfut meni bilim yurtining ostonasidan qaytaraverdi. Lekin chekinmadim. Harbiy havo kuchlari meni kursant sifatida qabul qilmasa, unga askar bo'lib boraman, deb maqsad qo'ydim. Men bugun marradaman! To'g'ri, bu orzularim to'liq ushaldi, degani emas. Umid esa bor. Harbiylikka qiziqish qonda bor. Akam ham, opam ham harbiy hayot ichida. Armiyaga bormayman degan yigitlarni sira tushunmayman. Parashyut bilan sakraganmisiz? Mening eng katta orzularimdan biri bu.

Yaqinda avtomatdan otish mashg'ulotlarini bajardik. Juda qiziqarli bo'ldi. Ozigina shoshib qoldim, ikkita urinishim besamar ketdi, qolgan yettitasi ko'ngildagidek. Armiyada hayot tashqi hayotdan tubdan farq qiladi. Hamma narsa nazorat ostida. To'liq rejaga asoslangan. Tushlik ham, dam olish vaqti ham. Kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman. Uyda shaxsiy kutubxonam bor. Safdosh do'stlarimga qiziqarli kitoblarni tavsiya

qilib turaman. Yaqinda bir safdoshim bilan kutubxonadan yozuvchi Paulo Koeloning "Alkimyogar" kitobini oldik. U o'qishga qiziqmasligini aytdi. Kunda bir varaqdan o'qiydiz dedim. Hozir qarasam, mendan o'zib ketibdi.

## BIRINCHI RAQAMLI ASKAR

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Lochinbek Azimov Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumani Bahriobod qishlog'ida tug'ilgan. Namangan muhandislik-texnologiyalari institutini tamomlagan. Xizmatga qadar tadbirkor sifatida faoliyat olib borgan.

– Menimcha, Vatanimni himoya qilish har bir yigitning orzusi bo'lsa kerak. Ko'cha-ko'yni changitib, to'p tepib katta bo'lgan bolalardan biriman. Kombat aykido kurash to'garagiga qatnaganman. To'garakdan kelib, uyda qo'nim topmas edim. Mahalla bolalari bilan koptok yirtilib, ado bo'lguniga qadar futbol o'ynar edik. Besh tashabbus loyihasi bo'yicha mahallalar, bosqichma-bosqich tumanlar orasida ko'plab sport musobaqalarida ishqiboz o'yinchi sifatida qatnashdim. Dadam pomidorga jo'yak olib qo'y deb ishga ketsalar, men ko'chaga futbol o'ynagani yugurar edim. Yozda ham, qishda ham, yomg'irda ham, qorda ham koptokning ortidan qolmas edim. Onam "Koptokning ketidan yugurib, oxiri kim bo'lasan?" deb urishganlarida xotirjamgina "Hokim bo'laman", deb javob berar edim. Balki, shu sababdan iqtisod yo'nalishini tanlagandirman.

Harbiy xizmatga chaqirilganimda butun oilamiz bilan quvondik. Uyimizda to'y bo'lib ketdi. Yaqin qarindoshlar ichida birinchi bo'lib harbiy xizmatga otlanayotgan yagona yigit men edim. Eng ko'p dadam xursand bo'ldi. Onam yig'lasa kerak deb o'ylagandim, yig'lamadilar. Xizmatga moslashishim oson kechdi. Bu yerdagi serjantlar, ofitserlar o'z akamdek mehribon va talabchan. Mashg'ulotlar kuchli talablar asosida tashkillashtiriladi va olib boriladi.

Askarlar bilan muloqotga kirishishim oson kechmadi. Og'ir vazmin bu yigitlar dastavval nima sababdan so'roqqa tutayotganimdan ajablanganlarini yashirib o'tirishmadi. Anglaganim shu bo'ldiki, qonimizda buyuk bobolarimiz qoni oqar ekan, vatanparvar o'g'lonlar tug'ilaveradi.

**Dilnoza SULAYMONOVA**  
suhbatlashdi.



# SAMIMIY TUYG'ULAR YOLQINI

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi mayor Aziz Norqulov ko'p yillardan beri "Vatanparvar" gazetasi tahririyatida bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat yuritib keladi. Uning turli yillarda yozilgan bitiklarida Vatanni chindan sevuvchi insonlar, ularning yuksak o'ylari, turmush chorrahalaridagi insoniylik sifatleri ko'zga yaqqol tashlanadi. Harbiy sohadagi faoliyati sababmi er yigitning yuragidan o'tganlari unga juda yaqin. Bugun ijodkorning "Jar yoqasidagi masxaraboz" kitobi nashrdan chiqdi. Yillar mobaynida misqollab yig'ilgan yoziqlar, maqolalar, ko'ngil kechinmalari, taassurot va tavsiflar bir to'plamda jam bo'ldi. Kitob so'zboshisida muallif shunday yozadi:

"Vaqtga ta'rif berarkanman, uni do'st deyishga ham, dushman atashga ham ikkilanib qolaman. Qancha qadrlasang, shu qadar ehtirom ko'rsatadi. Nima qilayotganimni tushunib-tushunmay, tirikchilik tashvishlaridan xalos bo'lish ilinjidagi urinishlar bilan qirqni qoralayapman. Shu yoshimda o'zimni bir jamlagim keldi. Ushbu mo'jaz kitobda jurnalistika sohasidagi faoliyatim mahsuli to'plandi. Kimgadir, qayerdadir nafi tegsa, umrim uzaygandek tuyuladi".

Quyida ijodkorning ushbu to'plami haqida yozilgan kechinmalarni taqdim etarkanmiz, undagi serzavq xayollar sizni-da befarq qoldirmasligiga ishonamiz.

TAHRIRIYAT

\*\*\*

So'zning yuki og'ir, mas'uliyati zalvarli. Qalam ahli, shoir yoki adib bo'ladimi, adabiyotshunos yoki jurnalistmi, qat'i nazar, buni teran his etishi muhimdir. Aks holda, yozganlari na o'ziga va na jamiyatga naf berishi mushkul.

Har bir asar muayyan mezonlarga javob berishi zarur va bu mezonlar ichida eng muhimi tuyg'uning samimiyligi va ifodaning rostligidir. Nazariy qoidalarga, janr talablariga nechog'li mos kelmasin, agar u samimiyat va haqqoniyatdan mahrum bo'lsa, asar o'quvchi shuuriga ta'sir etmaydi, uning qalbidan joy topa olmaydi.

Publitsist va adib o'stimiz Aziz Norqulovning hikoya va badialari, hajviya va badiiy-publitsistik maqolalari samimiyat izhori, dil harorati bilan yo'g'rilgani bois o'quvchilarga tobora ko'proq manzur bo'lib bormoqda. Jurnalistik faoliyati samarasi bo'lgan maqolalar va suhbatlaridan tarkib topgan "Jar yoqasidagi masxaraboz" kitobi fikrning tiniqligi, uslubning ravonligi va izhorning samimiyati bilan alohida ajralib turadi.

Uning ijod namunalari odatiy qoliplardan yiroqligi, ijodiy yondashuvga tayanilgani uchun katta qiziqish bilan o'qiladi. Ijodkorning yutug'i shundaki, an'anaviy mavzularga ham yangicha nazar va uslub bilan yondasha biladi. "Bobomning omonati" badiasi buning isbotidir.

Ajdodlarimizdan omonat bu ulug' Vatanni asrash, uning ravnaqiga xizmat qilish mavzusida ming-minglab maqolalar yozilgan bo'lsa ajab emas. Shu bois bu mavzuga yangicha yondashish uchun ohorli ijodiy tafakkur zarur. Ana shu fazilat natijasi o'laroq bu maqola g'oyatda o'qishli va jozibali chiqqan.

Maqola muallifning tushida bobosi bilan oq tulporda sayr etishi voqeasi tasviridan boshlangan:

"- Kel, bolam, hali manziling olis, o'zim yordam beraman, - deb menga qo'l uzatadi.

- Qayerga boramiz, bobo?! - deb so'rayman.

- Chala qolgan ishlarim bor, - deb bobom muloyim jilmayadi. - Shularni tugatib qo'yishing kerak".

Yo'l charchog'i bilinganda, bobo nevaraga urushda ko'rganlari oldida bu qiyinchiliklar dengizdan tomchi ekani, asirlikda chekkan mashaqqatlari, buning ustiga "qoraxat" kelgani-yu, momo uni yetti yil kutgani haqida so'zlaydi.

"Biroq boshimga tushgan ko'rgiliklardan sira afsuslanmayman, - deydi bobo. - Axir Vatan omon qoldi-ku. Bu Vatan esa bizdan senga omonat. Sen Vatanni asrashing kerak!"

Vatanni asrash tuyg'usini hech bir tamasiz, suiiste'mol qilmasdan, tabiiy tarzda ifodalash oson emas. Ana shu samimiyat bois Aziz Norqulov bobolardan omonat ona zamin haqidagi o'ylarini qog'ozga

bitibgina qolmay, ko'ngillarga ham ko'chira oladi. Hamma ham uchavermaydigan vertolyot va harbiy samolyotlarda tomosha qilar ekan, ona yurt sarhadlarini mehr ko'zi bilan kuzatadi. Tog'lar, cho'llar, shahar-u qishloqlar - bobosi otda sayr qildirgani bilan aynan uyg'un ekanidan hayrat hissini tuyadi. Ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan, avlodlarga bezavol yetkazish lozim bo'lgan omonatni asray olayotganimizga shukr qiladi.

Kitobdagi "Ota uy" maqolasi ham shunchaki o'qilmaydi. Muallifning kechinmalari bamosoli qo'shiqday ko'ngilgizga oqib kiradi, qalbgga yaqin tuyg'ularni yodga soladi. Vatan ota uydin boshlanishi, olam va odam qismati haqidagi hayot falsafasi ana shu ma'vo bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi to'xtamga olib keladi. Bu hol Aziz Norqulov maqolalarida publitsistik pafos va ijodiy tafakkur uyg'unlashib ketganidan dalolat beradi.

Jumladan, mazkur maqolada ona qishlog'iga, ota uyga borayotgan muallif kechinmalari quyidagicha tasvirlanadi: "Katta yo'lda pitillab ketayotgan mashinadaman. Atrofni jiiim kuzataman. Yo'limda uchragan har bir narsa nimagadir ishora qilayotgandek. Bug'doyzorlar shamolda dengizdek chayqaladi. Sarg'aya boshlagan boshloqlar bosh silkitib xo'shlayadi. Qishlog'im, Oyoqorning qorli tog'lari olislardan quchog'ini ochib qarshilaydi. Oylar o'tib yana qaytayotganimdan sevinadi, menimcha. Jilg'alaridagi suv o'ynoqlab poyimga shoshiladi. Undagi shaffoflik qalbinga ko'chadi. Shaharga ketayotganimda tog'lar tund qiyofada bo'ladi. Buni katta yo'lga chiqib, ortimga qaraganimda sezaman. Mayin shabboda bilan yelkanga qoqib, dalda beradi. Bundan kuch-quvvatga to'lib, yana ildamroq ilgari layman. Qaytayotganimda ilonizi cho'qqilar pastlab kelayotgandek, qarshimga peshvoz chiqib, peshonamdan o'pmoqchi bo'lib egilayotgandek tuyuladi".

Bu go'zal tasvirlarda ota uyga sog'inch tuyg'usi badiiy ifodalangan. Bu esa, o'z navbatida, muallif fikrlarining o'quvchi qalbiga tezroq va ta'sirliroq yetib borishini ta'minlaydi. Hovlida kuymalanayotgan onasi quchog'iga talpinishi, volida peshonasida ajinlar ko'payganidan kuyinish hissi, hassaga tayangan otaga qarab, bu mo'tabar siymoga shu chirigan yog'ochchalik ham nafi tegmayotganidan o'kinish, ota-onasini mahkam quchib,

toabad bag'irlarida qolishni istash - har birimiz uchun tanish tuyg'ular ekani bilan ham qimmatli.

Inson tafakkurining yuksalishlarini kitobdan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Yosh avlodning, butun millatning kitobxon bo'lishiga erishmoq - yuksak orzu. Bu niyatga shunchaki erishish imkonsizdir. Millat oydinlari, jamiki ziyolilari, kuch-qurbi yetadigan barcha intellekt egalari butun ijodiy salohiyatini, ilmiy quvvatini, iqtisodiy imkoniyatlarini ana shu ishga safarbar etishi - zamon talabi.

Aziz Norqulovning "Jar yoqasidagi masxaraboz" maqolasi ushbu muammo hayotiy misollar orqali juda ta'sirli talqin etilgani bilan ahamiyatlidir. Muallif da'vat va shiorlardan tiyiladi. Kitobxonlikka targ'ib etishning o'ziga xos usulini topadi: Onore de Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" asarini o'quvchi bilan birgalikda mutolaa va mulohaza qiladi.

Asardan maqola muallifi keltirgan ko'chirmalar, chuqur mushohadaga tayanilgan qarashlar o'quvchi tafakkurini charxlaydi, qalbini tozartiradi, ruhini yuksaltiradi. O'quvchi kitob mutolaasi nechog'li zarurat ekani haqida teran xulosaga keladi.

"Endi barcha tilak-istaklaringiz aniq, ammo sizning umringiz hisobiga amalga oshadi" - maqola kompozitsiyasi asardagi sag'ri terini changaliga olgan yigitga muzezdagi chol aytgan ushbu gaplar asosiga quriladi. Muallif ayni haqiqatni bosqichma-bosqich o'quvchi qalbiga joylay boradi.

"Asarni o'qir ekanman, - deb yozadi u, - olamning boshqa bir qiyofasi ochilib keldi, go'yo. Biz har bir so'zimiz, nigohimiz, harakatimiz bilan butun koinotga ta'sir ko'rsatayotgandek. Tabiat bilan tillashib, umrimiz evaziga ayrim narsalarni ayiribosh qilayotgandek. Sizif kabi ana shunday evrilishlarda yashayotgan millionlab odamlar kurashdan charchamaydi. O'z olami va mavjud borliq orasidagi nomutanosiblik tinka-madorini quritayotgan qancha do'stlarimiz bor. Ular Sharqning mashhur rivoyatidagi orqalaridan quvib kelayotgan arslonni ham, quduq tubida kutayotgan ajdarhoni ham, ushlab turgan shoxlarini kemirayotgan oq va qora

sichqonni ham ko'rib turgan odamlar. Ular qanday qilib asalning totini tuysinlar?!"

Maqola zamondoshlarimizni olamda kechayotgan voqea-hodisalarga, jamiyatdagi chuqur o'zgarishlarga teran qalb ko'zi bilan qarashga undaydi. Bu undov-chorlov quruq chaqiriqqa emas, fikrning tabiiy oqimiga tayanilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Yana bir muhim jihati, muallif har bir fikrni bugungi zamon bilan, biz yashayotgan davr muammolari bilan bog'laydi. Kitob mutolaa etganda, undagi nodir hikmatlardan bugungi kun uchun foydalanmoq zaruratini samimiyat va ta'sirli ifodalaydi.

Zo'rma-zo'raki urinishlar bilan ovoza bo'ladigan to'ylar qilishga, dabdabali ko'pkari uyushtirishga, qo'niq berishga, to'qlarni o'ynab-kuldirishga bor budini sarflayotgan, lekin o'zining sog'lig'i, farzandining ta'limi va tarbiyasini yoddan chiqarayotgan zamondoshlarga katta toshoyna tutadi.

Oliyoghdada kontrakt pulini to'lay olmay, o'qishdan haydali ketayotgan iste'dodli talaba, qo'shnisiga yordam berishni ep ko'rmaslik, achinarlisi, to'ydan keyin katta qarzga botib, qaysidir xorijiy davlatga ishlagani ketayotganlarning ham uchrashi haqida kuyinib-yoshovrab yozadi.

Balzakning "Afsuski, biz ermaklar uchun hamisha pul topamiz, foydali va eng zarur narsalarga esa xasislik qilamiz", degan fikrlari barcha davrlar uchun dolzarb ekani haqidagi to'xtamga keladi.


Umuman, iste'dodli jurnalist va mahoratli qalamkash Aziz Norqulovning bitiklari muttasil ravishda fikrlayotgan, faqat o'zini o'ylamay, jamiyat hayoti uchun kuyinayotgan, jonajon Vatani va ona xalqining ertangi kuni uchun chin dildan qayg'urayotgan millat ziyolisining fikrlarini ifodalagani jihatidan qimmatlidir.

Eng muhimi, bu fikrlar ko'ngillarga samimiyat yog'dusini indiradi, o'quvchiga g'ayrat va shijoat bag'ishlaydi, ona yurtga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Ushbu kitobni mutolaa etsangiz, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz.

**Nurbob JABBOROV,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor







# TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT

Zamonaviy dunyo sun'iy intellekt va robotlashtirishning jadal rivojlanishiga asoslangan tezkor o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, jumladan ta'lim jarayoniga chuqur kirib, yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Aqlli va avtomatlashtirilgan tizimning paydo bo'lishi o'qish hamda o'qitishning an'anaviy modellarini qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Muhim savol tug'iladi: yangi texnologiyalar kirib kelgan kuchli raqobat sharoitida professor-o'qituvchilar tarkibini qanday qilib "saqlab qolish" mumkin? Oldinda yana qanday xavf-xatarlar bor?

Birinchidan, sun'iy intellekt o'qituvchilarning ko'plab muntazam vazifalarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Masalan, uyga berilgan vazifalarni va testlarni tekshirish ("Grammarly" insholarini tekshirish tizimi yoki "Coursera" onlayn kurslarni tekshirish platformasi orqali), o'quv materiallarini tayyorlash (masalan, ChatGPT-3.5, ChatGPT-4 va ChatGPT-5 matnlarni yaratish tizimi yoxud "Khan Academy" platformasi interfaol darsliklari bilan) osonlashadi.

Ikkinchidan, yakka tartibdagi shaklda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Sun'iy intellekt individual o'quv dasturlarini yaratish va matnni har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi, bu esa ma'lum fanlarga ixtisoslashgan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin. Uchinchidan,

sun'iy intellekt asosida onlayn kurslar va o'quv platformalari ("Coursera", "EdX", "Udemy") mavjud bo'lib, ular tobora ommalashib bormoqda, bu esa, o'z navbatida, an'anaviy universitetlar va professor-o'qituvchilar tarkibi uchun raqobat muhitini yaratadi. Bunday sharoitda ushbu muammoni hal qilishda bir nechta "strategiyalar" mavjud. O'qituvchilar bunday sharoitga moslashishlari kerak va sun'iy intellekt hamda robot tizimlarining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishlari zarur.

Professor-o'qituvchilar uchun yangi xavf-xatarlarni hisobga olgan holda ularni "saqlab qolish" strategiyasi

quyidagicha amalga oshirilishi kerak, xususan:

1. O'qituvchi rolini qayta ko'rib chiqish kerak. Sun'iy intellekt va robotlashtirishning rivojlanishi sharoitida o'qituvchining roli o'zgaradi. U shunchaki ma'lumot manbasi sifatida namoyon bo'lishni to'xtatishi kerak va yanada ijodiy hamda strategik vazifalarni bajarishga o'tishi lozim, ya'ni:

- o'qituvchining tanqidiy tafakkuri va ijodkorligini rivojlantirish, bu esa, o'z navbatida, tinglovchilarda tahliliy va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi kerak;

- "ustoz-shogird" kabi an'analarni davom ettirib, o'qituvchilar talabalarga axborot makonida munosib harakat qilish va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradigan murabbiyga aylanishlari lozim;

- jamoa ko'nikmalarini shakllantirish, bu yerda o'qituvchilar zamonaviy dunyoda ish yuritishning asosiy o'zagi bo'lgan jamoaviy ish va muammolarni birgalikda hal qilishni rivojlantirishga ko'maklashishlari zarur.

2. Professor-o'qituvchilar sun'iy intellekt va robotlar imkoniyatlarini samarali o'rganish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun ko'proq interfaol va qiziqarli o'quv dasturlarini yaratish uchun virtual ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi.

3. Shaxslararo ko'nikmalarga e'tibor qaratish lozim. Kelajakda o'qituvchilarning quyidagi shaxslararo ko'nikmalari muhim bo'lib qoladi: empatiya va tinglovchilarni tushunish; o'zgaruvchan ta'lim muhitida talabalar bilan o'zaro munosabatlar; talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etish

professor-o'qituvchilarga ilm-fan va texnologiyalarning ilg'or bosqichida qolish, yangi ta'lim resurslari hamda usullarini yaratish, sun'iy intellekt va robot tizimlaridan foydalangan holda innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

5. Gibril o'quv modellarini ishlab chiqish. An'anaviy o'qitishni sun'iy intellekt va robot tizimlari bilan birlashtirish yanada samarali hamda qiziqarli o'quv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Masalan, ta'limni shaxsga qaratish, talabalarni fikr-mulohazaga undash, shuningdek amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'qituvchilar yordamchi sifatida robotlardan, sun'iy intellektdan foydalanishi mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, zamonaviy rivojlanish jarayonida insoniyat atrof-muhit o'zgarishiga moslashib, omon qolish uchun yangi vositalar va usullarni ishlab chiqdi. Xuddi shu kabi professor-o'qituvchilar yangi o'qitish usullari va ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi texnologiyalar, ya'ni sun'iy intellekt va robotlashtirish bilan o'zaro aloqada ular bilan raqobatchilar emas, balki ittifoqchilar sifatida munosabatda bo'lishi, insonning ijodkorlik kabi ajralmas fazilatlariga e'tibor qaratish orqali sharoitga moslashishi kerak.

**Botirjon AHMADJONOV,**  
harbiy fanlar bo'yicha  
falsafa doktori  
Qurolli Kuchlar  
akademiyasi





# MILLIY O'ZLIK

Vatanparvarlik g'oyasi xalqni birlashtiruvchi asosiy kuchdir. U milliy g'ayrat-shijoatni va o'z mamlakatiga muhabbatni alanga oldiradigan uchqundur. Milliy birlik g'oyasi xalq ongida qaror topadi hamda umummilliy manfaatlarga bo'ysunish va ularni ro'yobga chiqarish uchun kurashish zarurligi to'g'risida tushunchani uyg'otadi. Vatanparvarlik milliy iffitor va milliy qadr-qimmat tuyg'usini uyg'otadi. San'at, she'riyat, adabiyot va musiqa g'oyaga xalq ijodi ruhini baxsh etadi, vatanparvarlikni umumxalq ongiga aylantiruvchi ma'naviy yuksalishni yuzaga keltiradi.

Turkistonda millatni qoloqlikdan olib chiqish uchun kurash ma'rifatchilik, madaniyatni rivojlantirish, milliy qadriyatlar hamda an'analarni saqlab qolish shaklida namoyon bo'lgan bu harakat jadidchilik nomini oldi. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi usul" ma'nosini anglatadi. Jadidlar "tovushli usul"ni qo'llashdi, bunda alifboning har bir harfiga muayyan tovush muvofiq kelgan bo'lib, shu tufayli o'zlashtirish tezligi ancha oshar edi.

Rossiya imperiyasi amaldorlari va mahalliy hukmdorlar zulmi ostida ikki yoqlama ezilgan Turkiston aholisining og'ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy va iqtisodiy jihatdan qoloqligi, mazkur ahvoldan qutilish yo'llarini izlash jadidlar faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi omili bo'ldi.

**Ma'rifatchilik g'oyalari va jadidlar.** Turkistonda jadidchilik harakatini rivojlantirishda Istanbulda ta'lim olgan, siyosat va jamoat arbobi Ismoil Gaspirali (1851–1914) katta rol o'ynadi. Sharq tillari va adabiyotini yaxshi bilgan iqtidorli Gaspirali Osiyoning musulmon mamlakatlarini modernizatsiya qilishga, ularning madaniy saviyasini oshirishga, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga xalal berib kelayotgan taqiqlarni bartaraf etishga intildi. U Buxoroga kelib, amir Abdulahad bilan uchrashdi va unga o'qitishning yangi usulidan foydalangan holda islom bilan bir qatorda dunyoviy fanlar – geografiya, tarix, matematika o'qitiladigan qator maktablar ochishni taklif qildi. Biroq amir Gaspiralinig bu taklifini qo'llab-quvvatlamadi.

Savdo munosabatlarining rivojlanishi natijasida, ko'plab davlat muassasalari xodimlariga va maktab o'qituvchilariga talab oshdi. Jadidchilik tez orada butun Turkiston hududida keng islohotchilik harakatiga aylandi. **U dastavval madaniy-ma'rifiy harakat sifatida rivojlandi va uning bosh maqsadi xalqning madaniy saviyasini**



**yuksaltirish yo'llaridan biri bo'lgan ma'rifatchilik edi.** Ma'rifatchilik XVIII–XIX asrlarda yuzaga kelgan, bashariyat boshiga tushadigan ofatning haqiqiy sabablari jaholat, madaniyatsizlik va diniy mutaassiblik deb hisoblaydigan e'tiqodga asoslangan g'oyaviy oqimdir. Ma'rifatchilar inson erkinligi va fuqarolik huquqlari uchun kurashganlar. Umuman olganda axloq me'yorlarini takomillashtirish, taraqqiy etgan hayot uchun kurash, xalq hayotini yaxshilashga intilish jadidlarni birlashtirdi.

Turkiston jadidlari A. Navoiy, Bedil va Mashrab singari fan va madaniyat arboblarning boy g'oyaviy merosining davomchilari edi. Ahmad Donish xalq maorifini mamlakatning taraqqiyparvar kuchlari harakatining asosi deb bildi.

**Jadidlar teatri.** Jadidlar xalqni ma'rifatli qilish, madaniyatni yuksaltirishning o'zi yetarli emasligini, xalq o'z kuchiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligini yaxshi tushunardi. Ularning ma'rifatchilik faoliyati sof ma'rifat doirasidan chiqib, zulmga va inson qadr-qimmatini kamsitilishiga qarshi faol kurash olib bordi. Ular demokratik o'zgarishlar uchun kurasha boshladilar va mamlakatda liberal-demokratik harakat asoschilariga aylandi.

Jadidlar o'zlarining barcha da'vatlari va shiorlari xalq ongidan joy olmas ekan, ular qabul qilinmasligini va kishilar hayotini o'zgartira olmasligini tushunardi. **Ular o'z g'oyalari va qarashlarini targ'ib qilishning eng samarali yo'lini topishdi – milliy teatr tashkil etdi.** 1911–1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida ular tomonidan ochilgan teatrlar jadidlar mafkurasini targ'ib qilishning juda qudratli ommaviy vositasiga aylandi. Aholining savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda sahnadan jaranglagan og'zaki nutq va aktyorlarning harakati jadidlar mafkurasining xalq qalbiga kirib borishiga imkon berdi. Ular mustamlakachi ma'muriyat senzurasidan va ruhoniylarning hushyor nazaridan qochib, o'zbek tilining serma'noligidan mahorat bilan so'fiylarning o'ziga xos tilidan foydalandi.

Xalqqa manzur bo'lgan "Padarkush" pyesasini harakat yetakchisi M. Behbudiy yozgan edi. Uning pyesasida har qanday yo'l bilan boyishga intilishning salbiy ta'siri ishonarli ravishda ochib berildi, yot madaniyatning farzandlar bilan ota-onalar munosabatiga salbiy ta'siri ko'rsatildi. Jadidlarning pyesalarida odamlarning behuda o'tgan baxtsiz hayoti, ayollar va bolalarning huquqlari buzilishi to'g'risida so'z borardi.

**1911-yildan 1917-yilgacha jadidlar teatrlarida 25 ga yaqin pyesa qo'yilib, ular butun Turkistonda shuhrat topdi.**

Spektakllar bepul namoyish etilar va ko'plab kishilar tomosha qilardi. Ularning ko'pchiligi uchun teatr ilk madaniy manba va dastlabki siyosiy maktab bo'lib qoldi. Jadidlar o'zbek xalqining buyuk murabbiyiga aylandi.

**Ozodlik, tenglik, adolat –**

**jadidlarning bosh tamoyili.** Jadidlar o'zbek xalqi uchun o'z ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy asoslariga ega bo'lgan yangi o'zbek davlatini barpo etishga yo'l ochib beruvchi milliy g'oyani shakllantirdi. Jadidlar o'zbek xalqi ijtimoiy tafakkurida qaror topgan ko'p asrlik insonparvarlik, erkseparlik va adolat g'oyalarning ulug' davomchilari edi.

Mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy odillik davlat hukmdori fe'lining asosiy jihati, deya ta'kidlagan edi. "Davlat rahbari, – deb yozadi Forobiy, – tabiatan adolatni sevishi va kishilarga nisbatan odil bo'lishi, zulm va haqsizlikdan hamda ularni sodir etgan kimsalardan nafratlanishi, xalqni adolatli yashashga astoydil undashi va adolatsizlik bilan tahqirlanganlarga hamdard bo'lishi lozim". **Faylasuf, yozuvchi, shoir, jamoat arboblarning asarlari tufayli adolat ideali o'zbek xalqi ongida mustahkam milliy qadriyatga aylandi.**

Davlatni adolat va odillik bilan boshqarish hukmdorlar uchun asosiy axloqiy tamoyilga aylandi. Amir Temur "Temur tuzuklari"da davlatni boshqarish qoidalari haqida so'z yuritiladi va insonlar qalbiga yo'l topadigan adolat birinchi o'ringa qo'yiladi. **Bu an'ana jadidlarning uch asosiy tamoyili – hurriyat, musovot, adolat (ozodlik, tenglik, adolat)ga tayangan dasturida o'z aksini topgan edi.**

Mabodo adolat xalqning ijtimoiy va milliy ongida an'anaviy qaror topgan g'oya bo'lsa, ozodlik va tenglik jadidlarning o'zlar tomonidan ilgari surilgan edi. Ozodlik deyilganda butun Turkiston hududida yagona ozod va mustaqil davlatni barpo etish nazarda tutilgan edi. Tenglik esa yerga xususiy mulkdorlik bo'lmagan va kishilik jamiyatida erishish mumkin bo'ladigan bir voqelik sifatida faraz etilgan, Osiyo qiyofasi ijtimoiy tafakkurida keng tarqalgan an'anaviy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan o'ta umumiy bir tushuncha edi.

Jadidlar Turkistonning xususiy mulki davlat himoyasida bo'lgan, qonun bilan kafolatlangan ozod va mustaqil davlatga aylanishini, har qanday dinga hurmat

nazari bilan qaraydigan va o'z xalqining erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi davlat bo'lishini, Turkistonni yuksak taraqqiy etgan Yevropa va Osiyo davlatlari qatoridagi davlat sifatida ko'rishni istadi.

**Jadidlar matbuoti.** Rossiyada 1905–1907-yillarda va 1917-yilning fevralida bo'lib o'tgan inqiloblardan keyin Turkiston jadidlari davom etayotgan mustamlaka qaramligi sharoitida o'lkaning ma'naviy va milliy uyg'onishiga erishish imkoniyati yo'qligini anglab yetdi. Abdulqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori va boshqalar kuch-g'ayratlarini o'z islohotchilik g'oyalari aholi orasida targ'ib etishga qaratishdi. Qattiqqo'l senzura qaramasdan, ular o'z gazeta va jurnallarini nashr eta boshladi. Turkistonda jadidlarning "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", "Samarqand", "Oyina", "Turon", "Buxoroyi sharif", "Sadoyi Farg'ona" va boshqa gazeta va jurnallari nashr etila boshlandi.

**1906-yil 27-iyunda Ismoil Obidov tahriri ostida "Taraqqiy" gazetasining birinchi soni chiqdi. Bu kun O'zbekiston Respublikasida Matbuotchilar kuni sifatida nishonlanadi.**

Ana shu nashrlarda jadidlar jahonda va Turkiston hududida ro'y berayotgan voqealar haqida hikoya qilib bordi. O'z g'oyalari mazmunini va ularni keng yoyish zarur ekanini tushuntirib berdi. Yangi usul maktablarining milliy mutaxassislar tayyorlash, bolalarni o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi. Ko'pgina maqolalar o'lkada va xorijda savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi qiyosiy tahliliga bag'ishlangan edi. Senzura sababli mavjud tuzumdan norozilikni oshkora ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmagan jadidlar xalq ommasini og'ir ahvoning haqiqiy aybdorlari – mustamlakachi ma'muriyat va o'z hukmdorlarining basharasini ko'rsatib berishga harakat qilishdi. **Jadidlarning milliy va siyosiy ongni yuksaltirish borasidagi sa'y-harakatlari xalq ommasiga katta ta'sir o'tkazdi.** Biroq podsho senzurasini jadidlar tomonidan nashr etiladigan bosma nashrlarni diqqat bilan kuzatar, siyosat va ozodlik kurashi to'g'risidagi maqolalar chiqishiga yo'l qo'ymasdi. Siyosiy erkinlik haqida fikr bildirishga bo'lgan har qanday harakat gazeta yoki jurnalning zudlik bilan yopilishiga olib kelardi.

**Mahmudxo'ja Behbudiy** madrasa mudarrisi oilasida dunyoga keldi. Avval maktabda so'ng madrasada ta'lim olgan. U arab va fors tillarini yaxshi





**Jadid maktablari yildan yilga ommalashib bordi. 1914-yilda Toshkentda 15 ta shunday maktab ochilib, ularda 1 230 nafar o'quvchi ta'lim oldi. 1910-yildan 1915-yilgacha Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida 73 ta yangi usul maktabi ochildi.**

Jadidlar zararli odatlarni to'xtatishga harakat qilib, axloqiy mukammallik uchun kurashdi. Ular giyohvand moddalar va alkogol ichimliklar iste'mol qilishni, tamaki chekishni qoraladi hamda erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligini yoqlab chiqdi. Jadidlar serchiqim marosimlarni, isrofgarchilik bilan o'tadigan

o'rgangan. Ko'p hamkasblaridan farqli ravishda rus tilini yaxshi bilgan hamda dunyoviy fanlarni o'rgana boshlagan. U dastavval mahalliy qozi huzurida mirzalik qiladi, shariat va fiqhni o'rgandi hamda musulmon huquqi bo'yicha maslahatlar bera boshladi. 1907-yilda Rossiyaga, so'ng O'rta Sharqqa sayohat qildi, Qohira, Damashq, Istanbul shaharlarida bo'ldi. Yangi usul maktablarida ishlab, geografiya bo'yicha 8 ta darslik yaratdi.

**Munavvarqori Abdurashidxonov** otasidan erta ajralib, boshlang'ich ta'limni davrining ilmi ayollaridan biri bo'lgan onasi Xosiyat otindan oldi. So'ng maktabda o'qib, qorilikka tayyorlandi. 1898-yilda u Darxon mahallasi masjidida mudarrislik qildi. Jadidlar g'oyasi bilan Gasprialning "Tarjimon" jurnali orqali tanishgan. U 1901-yilda yangi usul maktablari uchun birinchi darslik – "Adibi avval"ni tayyorlab, unda grammatika, alifboni o'qitish asoslarini bayon etib berdi. Ikkinchi darsligi – "Adib us-soniy"da o'qish va yozishga o'rgatish uslubini, shuningdek oiladagi o'zaro munosabatlarning asoslarini tasvirlab bergan. Shuningdek, Munavvarqori matematika bo'yicha birinchi darslik muallifi hamdir.

**Jadidlar va tarix.** Jadidlar milliy g'oya va milliy ongni shakllantirishda obyektiv manzarani haqqoniy, to'g'ri aks ettiruvchi tarixni yozib qoldirishga birinchi darajali ahamiyat berishardi. Ular tarixchilar xonlar va beklar to'g'risida emas, balki mamlakat ravnaqiga ko'maklashgan real voqealar to'g'risida yozishlari zarur deb hisoblashardi. Ularning fikricha, taqdir mushtarakligi, birgalikdagi kurash hamohangligi tarixiy asarlarning chinakam mazmunini shakllantirishi lozim edi. **Turkiston tarixi bo'yicha dastlabki umumlashtiruvchi asar 1870-yildan chiqqa boshlagan "Turkiston viloyatining gazetisi" muharriri Mulla Olim Maxdum Hoji qalamiga mansub edi. Uning asari "Tarixi Turkiston" deb nomlangandi.**

Maktab va madrasalarda tarix fan sifatida o'qitilmas edi, shu bois jadidlar bu fanni o'qitishga qaror qilishdi. Yangi usul maktablarida turk xalqlari tarixi va geografiya fanini o'qitishni Munavvarqori birinchi bo'lib joriy etdi. Bu Turkistonning madaniy rivojlanishiga qo'yilgan muhim qadam edi.

to'ylarni tanqid qildi. Ular urushga qarshi chiqdi, hukmron doiralarning ijtimoiy va axloqiy yemirilishini, xushomadgo'ylikni, tekinko'rlikni va mutaassiblikni fosh etdi, haqiqiy islomni uydirmalardan tozalab, uning mohiyatini tushuntirib berdi.

Jadidlar mafkurasi hayotiy qoidasi zo'rlik ishlatmasdan, ya'ni hatto eng keskin muammolarni kuch ishlatmay hal etishdan iborat bo'lgan Mahatma Gandi g'oyalariga yaqin edi. Jadidlar aslida zo'ravonlikni rad etishar, chunki yirik ijtimoiy va ma'muriy inqiloblar faqat xalqqa azob-uqubat keltiradi hamda oxir-oqibatda ozodlik va ijtimoiy taraqqiyot g'oyasini obro'sizlantiradi, deb hisoblashar edi.

O'lkada milliy ozodlik harakati kuchayib bordi, Turkiston xalqlarining mustamlakachilikka qarshi norozilik kayfiyatlari uning zaminiga aylandi.

**Rossiyadagi inqiloblarning jadidlar harakatiga ta'siri.** Rossiyadagi 1905–1907-yillar inqilobi Turkiston aholisining siyosiy faolligini kuchaytirib yubordi. Har qanday qatag'on ham milliy ozodlik harakatini to'xtatib qola olmadi. O'lka aholisining mustamlakachi ma'muriyatga qarshi chiqishlari – o'z hukmronligini saqlab qolish uchun Turkistonda yirik harbiy kuchlarni ushlab turishga majbur bo'lgan chor hukumatiga katta zarba bo'lib, aksincha rus inqilobiga katta ko'mak edi.

Turkistonda XX asr boshlarida inqilob yildan yilga kuchayib bordi. Masalan, 1911–1914-yillarda Turkistonda **general-gubernator ma'muriyatiga maxfiy bildirishlarda yozilishicha, "qo'zg'olon ko'targan dehqonlar guruhlarining mustamlaka ma'muriyatiga, boylar va savdogarlarga nisbatan 1 136 ta qarochilik hujumlari" qilinganligi qayd etilgan.**

Rossiyadagi 1917-yilgi Fevral inqilobi ham milliy ozodlik harakatining rivojlanishiga nihoyatda katta ta'sir o'tkazdi. Bu davrda jadidlar o'zining Islom kengashi ("Sho'royi islomiya") nomli birinchi partiyasini tuzadilar va u siyosiy tus ola boshladi. Buxoroda amir Olimxonni cheklangan islohotlar o'tkazishga erishgan "Yosh buxoroliklar" partiyasi vujudga keldi. Xorazmda esa asosiy maqsadi mamlakatni boshqarishni isloh qilish bo'lgan "Yosh xivaliklar" partiyasi tuzildi.

1917-yilning mart oyi boshlarida jadidlar Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarni umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilotga birlashtirishi lozim bo'lgan yangi tashkilot tuzdi. U "Musulmon markaziy sho'rosi" ("Milliy markaz") deb ataldi. Uning ta'sis syezida 350 delegat qatnashgan, ularning orasida ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar va boshqa musulmon xalqlarining vakillari bo'lgan.

Syezda bo'lajak davlatning maqomi muammosi yuzasidan qizg'in bahslar bo'ldi. Barcha delegatlar bo'lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva, Qozog'iston va Turkiston general-gubernatorligi kirishi kerak, degan fikrni ma'qulladi. Ammo davlatning maqomi to'g'risida so'z borganda fikrlar bo'lindi. Toshkent jadidlari mustaqil va suveren Turkistonni yoqlagan bo'lsa, samarqandlik delegatlar bo'lajak federatsiya tarkibida avtonomiya asoslarida qolishni taklif etdi.

**Jadidlar Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrab g'oyalariga asoslangan milliy demokratik va taraqqiyparvar jamoatchiligi ilg'or qismining eng yaxshi an'analarini davom ettirdi.** Ular Turkistonda tobora o'ziga yo'l ochib borayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni ifoda etuvchilari edi. Jadidlar dunyoqarashi moddiy o'zgarishlar va o'sha davrda shakllangan yangi muhit bilan chambarchas aloqada bo'lgan. Jadidlar, ma'rifatparvarlar sifatida fransuz va ingliz ma'rifatchilari bilan g'oyaviy jihatdan yaqin maslakdosh edi.

Jadidlarning asosiy xizmati shundan iborat bo'ldiki, ular milliy istiqloq g'oyasiga asos soldi va Turkiston tarixining unutilgan qahramonona sahifalarini tiklab, tarixning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib berdi. Ularning yana bir xizmati shundan iborat ediki, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish usullarini ishlab chiqdi, mavjud tuzumni yaxshilashning samarali usuli xalq maorifini isloh qilish ekanini, bilim olish va ularni hayotga tatbiq etish zarurligini ko'rsatib berdi.

Jadidlar, xalq ta'limida yangi usullar markaziga aylana oladigan, milliy madaniyat, islom, an'ana va odatlarni himoya qilishda ishonchli vosita bo'ladigan o'z milliy maktablarini tashkil qila boshladi. Bu maktablar yangi usul – jadid maktablari deb atala boshlandi.

Unda xalq tarixi o'qitilar, matematika, tabiiyot, geografiya va ona tili bo'yicha yangi dunyoviy mazmundagi darsliklar asosida ta'lim olib borilar edi. Jadidlar o'quvchilar tarixni o'rganishi uchun alohida ahamiyat berdi. Maktablar va madrasalarda odatda islomga asos solingan muqaddas diniy tarix o'qitilar edi. **Jadidlar esa turkiy xalqlar va Turkiston o'lkasi tarixi bilan bog'liq bo'lgan dunyoviy tarixni o'qita boshladi. Ular yagona millat va yagona Vatanning yagona tarixini o'qitishardi. Birinchi jadid maktablari Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Andijon va Xivada ochildi.**

Jadidlarning g'oyalari o'zbek xalqining umummilliy g'oyalariga aylandi va o'zbek xalqining ma'naviy birligi shakllanishiga imkoniyat yaratib berdi.

Jadidlar tomonidan ularning maktablari uchun tayyorlangan darsliklar sharhi Vatan va xalq birligiga da'vat hamda o'z o'quvchilarida ona Vatani oldida mas'uliyat hissini, uning ravnaqi yo'lida mehnat qilish majburiyati hissini tarbiyalash ularning markaziy g'oyasi ekanidan dalolat beradi. **O'zbek milliy madaniyati, adabiyoti va san'ati shakllanishida yetakchi rol o'ynagan qator taniqli olimlar, yozuvchilar, rassomlar, artistlar o'z tahsili va faoliyatini jadid maktablarida boshlashgan.** Ular orasida shoir va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929), shoirilar G'afur G'ulom (1903–1966), Uyg'un (1905–1990), yozuvchi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek (1905–1968) va boshqalar bor.

Yangi usul maktablarida yangi maorif ziyolilari shakllandi. Jadidlar maktabida ta'lim olgan Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy, Mo'minjon Muhammadjon o'g'li, Fayzulla Xo'jayev, Botu va boshqalar xalq maorifi sohasida halol mehnat qildi.

**Mustamlaka ma'muriyatining yangi usul maktablariga qarshi kurashi.** Jadid maktablari ommaviyligi va mashhurligi mustamlakachi ma'muriyatni tashvishga soldi. Podsho hokimiyati ularda mustamlaka tartibotlari uchun ulkan xavf-xatarni ko'rdi va hokimiyat jadidlarni oshkora ta'qib eta boshladi, xalq ta'limi ishlarida ularning faoliyati taraqqiy topishiga to'sqinlik qildi.

1908-yilda Turkiston general-gubernatorligini tekshirgan graf va senator Konstantin Palen o'z hisobotida shunday yozadi: "Yangi usul maktablari nihoyatda jiddiy e'tiborga sazovordir. Musulmon hayoti islohcilar hatto maktablarni ham o'z qo'lga olishga intilayotir. Tegishli ma'muriyat va dasturlar bilan ular islohotchilik ideallari uchun kuchli, ma'rifatli harakatni vujudga keltirishni rejalashtirishgan. **Yangi usul maktabi muallimi bir yozishmasida shunday yozadi: "Maktab kelajakda yagona davlatni barpo etish negizidir".**

Matbuotda yangi usul maktablari tanqid qilindi va kamsitildi. Mustamlakachi hokimiyat maktablarda xorijiy turk va fors adabiyotidan foydalanishni taqiqlab qo'ydi, mahalliy o'quv adabiyoti nashrlariga nisbatan senzura joriy etdi. Podsho hukumati ma'murlari boshida yangi usul maktablari faoliyatini cheklab qo'yishni, keyin esa butunlay yopib tashlashni ko'zladi. Xiva hamda Buxoro musulmon ruhoniylari va davlat hokimiyati jadid maktablariga qarshi chiqdi.

1911-yilda mustamlakachi ma'murlar 50 ta yangi usul maktabini yopib qo'yishdi, qolganlarida esa rus tili majburiy fan sifatida o'qitila boshlandi. 1913-yilga kelib, Buxoro amirligidagi barcha yangi usul maktablari yopib tashlandi va yangi maktablar ochish uchun ruxsat berilmay qo'ydi.

**Xulosa qilib aytganda, jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar millat va Vatan taqdiri, uning kelajagi uchun keng qamrovli faoliyatni o'z ichiga olib, zamon ilm-fanini chuqur o'rganish orqali milliy davlatchilikni qayta tiklashni maqsad qilgan edi.** Afsuski, ular boshlagan ishlarini oxiriga yetkaza olmadi. Bunga mustamlakachi sobiq Sovet hukumati va mahalliy mutaassib kuchlar yo'l qo'ymadi.

Bugungi avlod oldida ushbu tarix saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqargan holda ma'rifatparvar jadid ajdodlarimiz orzu qilgan milliy davlatchiligimizni mustahkamlash uchun eng so'nggi ilm-fan yutuqlarini o'rganish talab etiladi.

**Istam RAXMONOV,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
Tabiiy fanlar kafedrasini mudiri,  
p.f.n., dotsent





# OROMGOH BOLALARGA HAMROH

Umumta'lim maktablarida o'quv yili yakunlangach, bolajonlar yozgi ta'tilda soya-salqin, bahavo maskanlarda miriqib dam olishga chog'lanadi. "Tong" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ana shunday so'lim go'shalardan biridir. Uning tongotari purviqor tog'lar orasidan boshlanadi. Mudofaa vazirligi tasarrufidagi ushbu maskan Bo'stonliq tumani Xondayliq qishlog'ida joylashgan. Ayni paytda oromgoh harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilarining 300 nafarga yaqin farzandiga o'z bag'rini ochgan.



Mudofaa vazirligining barcha harbiy okruglari va garnizonlaridan oromgohning dastlabki mavsumi uchun ro'yxatga olingan dam oluvchilar Davlat va Harbiy avtomobil nazorati ko'magida manzilga yetib keldi.

Oromgohda joriy yilgi mavsumning tantanali ochilish marosimi yuqori saviyada o'tkazildi. "Marjon" bolalar raqs ansambli, harbiy orkestr va harbiy xizmatchilarning qo'l jangi chiqishlari bolajonlarga bir olam shodlik ulashdi.

– Ushbu xushmanzara va so'lim maskan joriy yilda mukammal ta'mirlanib, yozgi mavsum uchun shay holatga keltirildi, – deydi oromgoh rahbari Zulfiya Mansurova. – Bu yerda shinam yotoqxona, kutubxona, oshxona, stadion, tibbiyot punkti, amfiteatr, suzish havzasi va



to'garak xonalari bolajonlarning ta'til vaqtini sermazmun o'tkazishga zamin yaratadi. Dastlabki mavsumga qabul qilingan bolalar yosh toifasiga ko'ra, 8 otryadga bo'linib, ularga alohida tarbiyachilar birlashtirilgan. Bolajonlar o'z qiziqishiga ko'ra, "Kitobxonlik", "Yapon tili", "Kompyuter savodxonligi", "Mohir qo'llar", "Yosh musavvir",

turli mahorat darslari, tog' safarlari o'g'il-qizlarning yozgi ta'til davrini qiziqarli va esda qolarli o'tkazishga xizmat qiladi.

Tong sahardan oromgoh radiouzeli dam oluvchilarni ertalabki badantariya mashqlariga chorlaydi. Oshxonada esa tabiiy vitamin va darmondorilarga boy tansiq taomlar har qanday

kichikintoyning ishtahasini ochadi. Mohir oshpazlar xo'randalar uchun mazali yeguliklarni tayyorlash va tortishda sanitariya-epidemiologiya talablariga qat'iy e'tibor qaratmoqda.

Oromgohda bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirish tizimli yo'lga qo'yilgan. Buning uchun bolajonlarning oromgohda o'tadigan jami 14 kuni ma'naviy, estetik va jismoniy sifatlarini takomillashtirishga oid alohida shior asosida tashkil etilmoqda. Xilma-xil to'garaklarning uzluksiz faoliyat olib borishi uchun zarur sharoit va jihozlar bilan ta'minlangan.

Suzish – bolajonlar uchun sevimli mashg'ulot. Ular suzish bo'yicha murabbiy suv havzasidagi texnik va xavfsizlik qoidalarini tushuntirganidan keyingina birin-ketin suvga sho'ng'iydi. Jadval asosida kichik guruhlarning jamoaviy va intellektual o'yinlari, ko'rgazmali chiqishlari namoyish etilmoqda. Kitobxonlik va sport musobaqalarida g'olib chiqqanlar esdalik sovg'alarni qo'lga kiritmoqda. Bolalarning bir olam shodligini yuz-u ko'zlaridan bilish mumkin.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**

## Ijtimoiy himoya

# Tavsiyanoma - muhim imtiyoz



xonadonlariga cheksiz quvonch olib kirmoqda. Har yili yuzlab yurt himoyachilarining o'g'il-qizlari davlatimizning ana shunday g'amxo'rliги ostida oliy ta'lim muassasalariga kvota asosida o'qishga kirish baxtiga muvassar bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, tavsiyanomalar mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan, jangovar xizmatda va ilmiy faoliyatda

Nukus garnizonida harbiy xizmatchilarning 31 nafar farzandiga imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov harbiy xizmatchilarning farzandlariga ushbu tavsiyanomalarni tantanali ravishda topshirdi.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi yo'lida olib borilayotgan islohotlar doirasida farzandlariga respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun tavsiyanomalari berilishi Vatan himoyachilarining

muayyan natijalarga erishgan haqiqiy xizmatni o'tayotgan ofitserlarga, serjantlar va oddiy askarlar tarkibiga mansub bo'lgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga – ular farzandlarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun bevosita komandirlarning (boshliqlarning) tavsiyasi bo'yicha beriladi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatni o'tashda halok bo'lgan, shuningdek harbiy xizmatni o'tashda yarador bo'lgan, kontuziya, shikast olish natijasida nogiron bo'lib qolgan yoki kasallikka duchor bo'lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga davlat granti asosida tanlovsiz qabul qilinadi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

## Uchrashuv

# IDORALARARO HAMKORLIK



Koreya Respublikasi Mudofaa vazirligi Jinoyatlarni tergov qilish bosh boshqarmasi qo'mondoni general-mayor Pak Xon Su boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida o'tgan uchrashuvda Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev rahbarligida Respublika Harbiy prokuraturasi vakillari ishtirok etdi.

Muloqotda idoralararo hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qator takliflar ilgari surildi. O'zaro hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish, huquqiy sohada zamonaviy yondashuvlarni birgalikda rivojlantirish borasida fikr-mulohazalar almashildi.

So'ngra Koreya delegatsiyasi O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi bilan tanishdi. Yurtimizga tashrifning ikkinchi kunida Milliy gvardiya markaziy apparatida Koreya delegatsiyasi bilan qo'mondonlik vakillari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng Jamoat xavfsizligi universiteti, uning faoliyati va ta'lim berish jarayonlari bilan tanishdi.

**Sherzod SAIDOV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokurorining  
katta yordamchisi**

## Ochiq muloqot

# VAZIFALAR BELGILANDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining birinchi o'rinbosari O. Xolboyev tomonidan Milliy gvardiya Qo'riqlash bosh boshqarmasida ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda Harbiy sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, shuningdek onlayn tarzda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Milliy gvardiya hamda qo'riqlash boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari, tizimdagi harbiy qism va muassasalar mas'ullari ishtirok etdi.

Muloqotda huquqbuzarlik va jinoyatlarning, shu jumladan korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, huquq-tartibotni hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari ishtirokchilarning diqqat markazida bo'ldi.

Shuningdek, kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar borasida ko'rsatmalar berib o'tdi.

**Adliya podpolkovnigi  
Botir SOBIROV,  
Respublika  
Harbiy prokurorining  
yordamchisi**



# Xalqni birlashtirgan bayram tarixi

O'zbek xalqining urf-odat va qadriyatlarini o'rganishda Abu Rayhon Beruniyning Markaziy Osiyo xalqlari, xususan O'rta asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida yashovchi xalqlar va qabilalar, xorazmlilar, sug'diylar va turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar haqidagi ma'lumotlari muhim ahamiyatga egadir. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida qadimiy xorazmlilar, so'g'dlar, eroniylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning taqvimlaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida bebaho tarixiy-madaniy manba qoldirgan.

Tarixiy manbalarda miloddan ilgari Eron, So'g'd va Xorazmda zardushtiylik taqvimidan keng foydalanilganligi to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Beruniy o'z asarlarida bu xalqlarda yilning har fasli, oyida o'z bayramlari va mashhur kunlari bo'lganini qayd etadi. Masalan, Farvardin-Moh – yoz boshi, Tir-Moh – kuz boshi, Mihr-Moh – qish boshi, Dey-Moh – bahor boshi ekani to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Ulug' allomaning Navro'z, Mehrjon, Sada, Qovoq, Uzum bayrami, o'tgan ajdodlarni xotirlash bilan bog'liq turli bayram va marosimlar to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlari hozirgi zamon uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur bayramlarning barchasida tabiatda doimiy ravishda yuz berib turadigan bir qator o'zgarishlar aks etgan. Qomusiy olimning yuqorida nomi zikr qilingan asari Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, urf-odatlari va turli e'tiqodlari tarixi aks ettirilgan o'ziga xos tarixiy va etnografik tadqiqot bo'lib, o'zbek xalqining an'anaviy urf-odatlari, bayramlari genezisini, tarixiy taraqqiyotini o'rganishda va ajdodlarimizning o'ziga xos turmush tarzi va milliy o'zligini anglashining shakllanishini tushunishda bebaho manbalardan biri hisoblanadi.

Xalq bayramlarida hamjihatlik, o'zaro hamkorlik, mehr-oqibat, saxovat kabi insoniy tuyg'ular mustahkam o'rin egallagan va tarbiyaviy ahamiyati ham nihoyatda katta bo'lgan. Ularning har birini o'sha paytdagi ijtimoiy va tabiiy shart-sharoitlardan, xalqning milliy ruhidan, o'ziga xosligi, e'tiqodi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tahlil etmoq lozim. Birinchidan, islomgacha bo'lgan davrda xalqlarning bayram va marosimlari muayyan jamoalarning yashash sharoiti, tashqi muhit bilan aloqasi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan darajasiga asosan shakllangan va sekin-asta odatga aylanib ommaviy tus olgan; ikkinchidan, bunday bayram va marosimlarning g'oyaviy yo'nalishiga islomgacha bo'lgan dinlarning ta'siri kuchli bo'lgan; uchinchidan, bayram va marosimlarning xalq hayoti, iqtisodiyoti, turmush tarzi, diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lganlari xalq xotirasida uzoq vaqt mustahkam o'rin egallab, islom dini keng tarqalgan hududlargacha saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayramlari va marosimlari, diniy qadriyatlarini kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarini, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu ijobiy qadriyatlarda o'zbeklarning milliy ruhiyati, o'z-o'zini anglashi, ma'naviy ongining shakllari namoyon bo'ladi. Ya'ni Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, saxovat va bag'rikenglik, qon-qarindoshlik hamda o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini ehtiyotlash, hayotdan ko'z yumgan kishilarni xotirlash kabilar ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy xarakterga ega bo'lgan.

Bundan tashqari, milliy tusga ega bo'lgan tabiat fasllari bilan bog'liq mavsumiy marosimlar: Gap-gashtak; Navro'z, Shohmoylar (*qo'sh chiqarish*); Lola va Qizil gul sayli; Sust xotin, Choy momo; hosil yig'imi bilan bog'liq Mehrjon, Oblo baraka, Shamol chaqirish, Uzum sayli va boshqalar xalqimizning turmush tarzini, urf-odatlarini, o'ziga xosligini, o'zligini namoyon etishda muhim rol o'ynaydi.

Qadim zamonlardayoq ajdodlarimiz 21-mart kuni kecha va kunduzning tengligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lganlar, bu kun umumxalq bayrami sifatida nishonlangan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'zning yoshi eng kamida to'rt ming yildan oshadi. Navro'zda ko'p udumlar ajdodlarimizning bevosita kundalik turmush ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, ular islom falsafasi va aqidalariga zid emas edi. Navro'z hali yurtimizga islom dini kirib kelishidan ham avvalroq nishonlanib kelgan. Garchi bu bayramning islom diniga hech qanday aloqasi bo'lmasa-da, uning insonparvarlik jihatlari muqaddas dinimizda ilgari surilgan ezgulik g'oyalarga hamohangdir. Shu bois xalqimiz islomni qabul qilganidan keyin ham Navro'zni nishonlab kelgan.

Navro'z ma'no-mazmuni va falsafasi bilan hayotimizga jo bo'lgan yasharish va yangilanish pallasi, sharqona yangi yil debochasi, boqiy qadriyatlar ayyomidir. "Asrlar tarixiga ega bu bayram tomoshalarida xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, milliy an'analari, turfa marosimlari namoyish etiladi, qayta tiklanib, yangicha tus oladi. Shu tariqa milliy meroslarimiz avlodlar qalbiga singib boradi".



Navro'z IX–XII asrlarda Xuroson va Movarounnahrda umumxalq bayrami sifatida yuksak qadrlangan. Bu to'g'risida aynan shu davrda yaratilgan yozma manbalar to'la guvohlik beradi. At-Tabariyning "Tarix", Al-Ma'sudiyning "Muruj az-azhab", Hakim Termiziyning "Solnoma", Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Umar Xayyomning "Navro'znoma", Nasiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Lutfiyning "Gul va Navro'z" asarlari shular jumlasidandir. Ularda bayon etilishicha, Navro'zni bayram sifatida nishonlash miloddan avvalgi VI–V asrlarda boshlangan. Jumladan, Umar Xayyom ham o'zining "Navro'znoma" asarida ulug' ayyomning nishonlanishi podshoh Jamshid davriga xos hisoblansin, deb farmon berganini eslatib o'tadi. "Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha xurram bo'ladi va farog'atda yashaydi" deb yozadi Umar Xayyom.

Yillar o'tishi bilan Navro'z asta-sekin din ta'siridan xalos bo'la borgan. Bu ishni xalqning o'zi hech qanday farmonsiz, buyruqsiz amalga oshirib, o'zining ko'hna madaniyatini, urf-odat va qadriyatlarini tiklagan va uni zamonaviy mazmun bilan boyitgan. Diniy meros va xalq qadriyatlarini e'zozlash orqali xalqimizning o'ziga xos milliy va diniy merosi yanada rivojlanib, ajdodlarimizning qadriyatlarini mustahkamlanishiga va shu orqali milliylik, o'ziga xoslikning o'sib borishiga sharoit yaratgan.

Mustaqillik tufayli Navro'z yorug' tuyg'ularini, o'lmas ruhi va ma'naviyatini, o'zligini namoyon etadigan umumxalq bayramiga aylandi. Bugun butun dunyoda Navro'zni har yili yarim milliard kishiga yaqin inson bayram qiladi. 2009-yil 30-sentabr kuni Navro'z YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010-yilda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qilindi.

Uning mohiyatida mujassam bo'lgan gumanistik g'oyalar, millati, tili va dinidan qat'i nazar, Yer yuzidagi barcha pok niyatli insonlar uchun birdek tushunarli va qadrlidir. Shu sababli Navro'z mustaqillik yillarida Vatanimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakili uchun tom ma'nodda suyuqlik bayramga aylandi".

Navro'z bayramining ijtimoiy, g'oyaviy-falsafiy mazmunini ochib berishda tadqiqotchi I. Suvanovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor birinchidan, xalqning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi, bu qadriyatning qadimiyligi

va orzu-umidlarning ro'yobga chiqishiga ishonishda; ikkinchidan, xalqning turmush tarzi, milliy ruhi, san'atining ajoyib shakllari, turli musobaqalar bilan e'tiborni jalb etuvchi bu bayramning xalqning ma'naviy turmushini boyitishga xizmat qilishida; uchinchidan, millatlararo do'stlik, hamdardlik, Vatanga muhabbat, tinchlik, osoyishtalik ruhini singdirishda; to'rtinchidan, yosh avlodni tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, milliy o'zlikni anglashda namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, ajdodlarimiz tomonidan ming yillar davomida nishonlanib kelingan yozdagi Angom hayit, kuzdagi Mehrjon, qishdagi Sada kabi bayramlarni tiklash zarur. Xalq qadriyatlarini va diniy urf-odat, marosimlarning ijtimoiy, falsafiy mazmuni shundaki, birinchidan, ezgulik, yaxshilik, elning bag'ri butunligi, jamoa yoki guruhlarning bajariladigan barcha yumushlarda o'zaro hamkorlik, bag'rikenglik, hamjihatlik tasavvurlari kishilar ongida shakllana boradi; ikkinchidan, kishilar boshiga qiyinchiliklar tushganda, ularga peshvoz chiqish, ular g'amiga sherik bo'lish, qo'lidan kelgancha yordam berish, milliy va diniy qadriyatlarini e'zozlab, ularning uyg'unligini e'tiborga olish, o'zbek xalqi asriy an'alarining tarkibiy qismini tashkil eta borgan; uchinchidan, yoshi ulug'larni hurmat qilish, ularning boy hayotiy tajribalarini qabul qilish tarixiy rishtalarini saqlash, vorisilikni tan olish demakdir. Ushbu xislatlar xalq ruhiyati va o'ziga xosligining asosini tashkil etib, ularning milliy o'zligini saqlab qolishlariga yordam bergan.

Bu fikrlarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xalqimizning urf-odat, marosim va bayramlari nihoyatda rang-barang, mazmunan boy ekani hamda har bir tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari va shunga monand urf-odat hamda bayramlari shakllanib, xalq turmush tarzida chuqur o'rnatilgan asrlar osha saqlanib kelinmoqda.

2. Xalq qadriyatlarini, milliy o'z-o'zini anglashning umuminsoniy tamoyillari, hayot tarzi bilan bog'liq holda amalga oshib kelgan. Ajdodlarimiz ma'naviy-diniy merosi va qadriyatlarini boy hamda rang-barang bo'lib, ularning ijobiy mazmundagilari bizgacha yetib kelgan.

3. Xalqimizning turmush tarzini bezatgan, ma'naviy ruhiyatini ko'targan urf-odat, marosim va an'alar madaniyatimizning rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

**Shahnoza KIMSANBOYEVA,**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti,  
falsafa doktori (PhD)



# JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA AMIR TEMUR O'GITLARI



Amir Temur o'z saltanatini idora qilishda ajdodlarning merosini o'rganish va saboq olish kerakligini uqtirib, shunday degan: "Odam Atodan boshlab to Hotamgacha va undan to hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turmushlarini donolardan so'rab surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi atoqlari, ma'qul sifatlaridan o'rnatib olib, ularga amal qildim".

Sohibqiron Amir Temurning e'tiborga molik meroslaridan biri uning siyosiy va huquqiy qarashlari majmui bo'lgan "Temur tuzuklari"dir. Ushbu asar davlatni boshqarish, qo'shinni tashkil etish, harbiy harakatlar uslublari singari qator siyosiy, huquqiy, harbiy g'oyalari va me'yorlarni o'z ichiga olgan.

Uning qoidasi "Rosti-rusti" edi. Haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – adolat demakdir, deb tushuntirardi. Amir Temur mamlakatni idora etishda, eng avvalo, diyonat, adolat, tadbirkorlik, hushyorlik va qattiqqo'llik singari

sifatlariga ega bo'lishni zarur deb hisobladi.

Amir Temurning "Adovat emas, adolat yengadi" degan mo'jaz va qimmatli so'zi hayotda hamon ahamiyatlidir. Temur asos solgan davlatda qonun ustuvorligi bardavom bo'lib, qonun talablariga rioya qilish barcha uchun majburiy va unga rioya qilmaganga qattiq chora ko'rilgan. Amir Temur ushbu prinsipni davlat huquqiy tizimining asosiy qoidalaridan biri deb bilgan. U "Men har doim askarlarimni qonunga itoat qilish ruhi bilan tarbiyalab keldim, qonun buzuvchilarni jazosiz qoldirmadim" deb ta'kidlagan edi.

Amir Temurning huquqiy tizimida jinoyatga qo'l urgan barcha kishilar, kimligidan qat'i nazar, qonun oldida hech qanday imtiyozsiz javobgarlikka tortilgan. O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, ichkilikka ruju qo'yish, maishiy buzulish kabilar og'ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan.

Amir Temur saltanatni boshqarishda islom dini qadriyatlariga tayanib, ilohiylik bilan dunyoviylikni uyg'unlashtirdi. Adolatparvar hukmdor, buyuk sarkarda sifatida o'zining aniq strategiyasiga ega bo'ldi.

"Yana tajribada ko'rib bildimki, davlat agar dini oyin (*tartib*) asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshar ekan, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib-chiqadigan, tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uya o'xshaydi", deydi Amir Temur.

Ushbu qoidaning muhimligini nazarda tutgan holda sohibqiron: "Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini islom dini, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim. Din-u shariat tuzugini tartibga keltirganimdan so'ng saltanatim korxonasining tuzugini kirishdim", deb xitob qilgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, jinoyat sodir etgan shaxsga faqatgina birgina jazo tayinlash tizimining aynan Amir Temur saltanatida qat'iy o'rnatilganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, asarda shunday deyiladi: "Biror kimsaning gunohi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, so'ng yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolalasalar, undan jarima olmasinlar". Mamlakatda adolatni qaror toptirish uchun alohida muassasa – "Adolat devoni" xizmat qilgan. U asosan davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlarga nisbatan tegishli jazo tayinlash bilan shug'ullangan. Ahamiyatli tomoni shundaki, har shaharda adolat amiri tayinlangan.

Darhaqiqat, buyuk sarkarda Amir Temurdan qolgan bunday meros yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda bebaho manba hisoblanadi. Zotan, o'z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo'lmaydi.

**Podpolkovnik G. SAMIYEV**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi, dotsent

## Mulohaza

Bugun rosti ijtimoiy tarmoqlardan foydalangim yo'q. Boisi kirdingizmi u yoki bu tanishlarimdan qayerdadir qaysidir o'qituvchi bilan bog'liq – "Jizzaxda o'quvchini urgan o'qituvchi ishdan bo'shatildi", "Xorazmda 6-sinf o'quvchilarini kaltaklagan o'qituvchi ishdan bo'shatildi", "Toshkentda o'quvchisini kaltaklagan o'qituvchi ishdan bo'shatildi" va hokazo shunga o'xshash ta'bni xira qiluvchi xabarlar ketma-ket keladi. Go'yo "Sen ham o'qituvchisan" degandek, mana ahvol deb barmoq uchida ko'rsatishgandek tuyulaveradi. Sanaganlarim mingdan biri ekanini siz ham, men ham yaxshi anglaymiz...

## HAMMASIGA O'QITUVCHI AYBDOR(MI?)

Hozir bu holatlarda kimning aybi ko'proq ekanini emas, bir ayol, o'qituvchi sifatida shaxsiy mulohazamni biroz bildirib o'tmoqchiman. Xo'sh, aslida muammo qayerda? Nega bunday holatga ko'p duch kelyapmiz? Hamma har xil yondashuvda bo'lishi tayin. Lekin men sababni ko'proq ilmda deb bilaman.

Muqaddas hadislarimizda "Ilm – sahroda do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor damlarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir", degan haqiqat keltirilgan. Buning davomi sifatida "Beshikdan qabrgacha ilm izla" hadisini ham eslaylik.

Kunimiz qanday o'tyapti? Oilalarning aksariyatida qachon bir kitob o'qilgani haqida so'z ochsangiz, aniq javob olib bo'lmaydi. Hatto kitob haqida so'z ochilsa, "ensa" qotiriladigan darajaga kelganimiz bor gap. Bu muammolarning sababchisi bir kishi emas, o'qituvchidan

tortib, o'quvchi-yu ota-onagacha, tarmoqlarda saviyasizlikni urchitayotganlardan tortib, butun jamiyatimizgacha ozmi-ko'pmi aybi bor. Bu

yashirin kuchni, hamma ham anglab yetmayapti. Bugun shu muammolar haqida gapiryapmiz-u ahvolimizni o'ylamaymiz, "Ongimiz qayerdan qay yo'sinda oziqlanyapti?" degan savolni o'z-o'zimizga berishga botinmaymiz. Paradoksni qarang: o'qituvchi ham, ota-ona ham o'quvchining kelajagi haqida o'ylaydi, ilm olishini istaydi. Bundan ikki tomon ham birdek manfaatdor. Ya'ni maqsad bitta. Faqat muammo yuzaga kelganda ikki tomon bir-biridan sabab qidiradi... Bir tomon "Oilada tarbiyaga e'tibor kam", desa, ikkinchi tomon "Ta'lim yaxshi berilmayapti", deya o'z kamchiligiga



parda tutadi. Agar shu zaylda yuk bir tomonning gardaniga tushishda davom etsa, ertamiz haqida yaxshigina tashvish tortishimiz zarur.

Aytmoqchi bo'lganim shuki, biz birlashishimiz, ilm yo'lga qaytishimiz, ertamiz g'amini o'zimiz o'ylashimiz lozim. Kimnidir aybdor qilishga qaratilgan qo'llarimiz kitob sahifalariga tushsagina, o'zgarishning toza havosini sezamiz. Yo'qsa, o'zimiz chiqarayotgan changimizda o'z yo'limizni yo'qotamiz.

**Shahlo RAXMONOVA,**  
Navoiy shahridagi  
1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



# HAMSHIRA

(voqeiyy hikoya)

1988-yil. Poytaxtdagi bolalar shifoxonasi. Zarofat chirqirab yig'layotgan bolasini tuni bilan shifoxonaning uzun koridori bo'ylab ko'tarib yurdi. O'zi kabi bemor bolasini olib yotgan onalardan obdan dakki eshitdi:

– Bolangizni tinchlantirsangiz-chi, bizga uyqu bermayapsiz!  
– Bizning xonaga yaqin kelmang, bolamni zo'rg'a uxlatdim, uyg'onib ketadi.  
– Bolangizni xonangizga kirib qarang, yoki hamshiraga ayting, uxlatadigan ukol qilib qo'ysin...

Yarim tunda juvoning iltimosidan uyqusi bezovta bo'lgan hamshira uni jekib berdi:

– Kasal bola yig'laydi-da! Shifokordan beruxsat hech qanday ukol qila olmayman. Onasiz axir, bolani eplash vazifangiz!

– Opajon, uning qayeridir qattiq og'riyapti-da, shunga...

– Bu shikoyatingizni ertalab shifokor "obxod"ga kirganda aytasiz.

Zarofatning gapini oxiriga yetmay, hamshira gapini qisqa qildi-yu, eshikni yopdi. Uning asabiylashib o'ziga o'zi "Shu qishloqlar juda jonga tegadi-dal" degan so'zlari-yu nopisand muomalasidan ko'zlari yoshga to'lgan juvon o'g'ilchasini bag'riga bosganicha yana koridor bo'ylab yura boshladi. Bolasini tashqariga olib chiqay desa, havo sovuq, ayni qish chillasi. Xonasiga kirishga birga yotgan sheriklarining injiqligidan yuragi betlamadi. U bolasiga goh ko'krak tutar, goh oyoq-qo'lchalarini uqalar, goh qo'llarini belanchak qilib tebratar, alla aytar, ammo ko'zlari yumuq bolakay tin olay demasdi. O'g'ilchasi yig'lay-yig'lay charchab, tongga yaqin uxlab qoldi...

– Xo'o'sh, Nurmatova, bolangizning ahvolidan qanday shikoyatingiz bor? – sochlari yigitlarnikidek kalta fasonda, o'ta zamonaviy shifokor Muxlisa Shonazarovna kasallik varaqasini ko'zdan kechirar ekan, bir haftadan buyon sog'lig'i yaxshi tomonga o'zgarayotgan Ilyosbekning qo'lchalarini ushladi.

– Bolangiz ancha bo'shshagan, yaxshi qaramayapsizmi deyman, "mamashka".

– Tun-u kun bolam bilan ovoraman, do'xtir. Faqat kunduzi bir oz uxlaydi, ammo kechasi bilan yig'lab chiqyapti. Ukollar kor qilmayapti, qayeridir og'riyapti-da, yordam bering, – yalinchoq ohangda shifokorga umid bilan termildi Zarofat.

– Bolangizning qorni og'riyotgani aniq, buning chorasini ko'rib, ukollar qilyapmiz, keragicha "klizma" qilindi. Qon "analiz"lari yaxshi chiqdi, shamollash yo'q. Yangi muolaja qo'llab ko'ramiz, – u oldidagi hamshiraga nimalarnidir yozib qo'yishni uqtirdi-da, boshqa bemor yoniga o'tdi.

Shifokor chiqib ketganidan keyin ko'p fursat o'tmay, hamshira kirib keldi.

– Nurmatova, bolangizdan "povtor" qon olishimiz kerak, "analiz" topshirish xonasiga kiring.

Zarofat bolasini bag'riga bosganicha xonaga kirganida hamshira katta shprisni qo'lga olib, uni betoqat kutib turardi.

– Bo'lmaysizmi, nega anqayasiz? bolangizning qo'lini oching! – hayrat bilan turgan Zarofatga ensasi qotib buyurdi hamshira.

– Axir uch kun avval katta shprisda qon oldinglar-ku, besh oylik boladan yana shuncha qon olish mumkinmi o'zi? – e'tiroz bildirdi Zarofat.

Hamshira nima deyishni bilmay, bir oz dovdirab turdi-da, so'ng o'zini qo'lga oldi:

– Professor Muxlisa Shonazarovna sizdan yaxshi bilsa kerak, yo'qsa, "analiz"ga yozarmidi? – kesatq gap bilan rangi aftoda ayolga bosh-oyoq qarab qo'ydi u. – Bo'la qoling, "mamashka", sizdan boshqa hali qancha bemorlarga qarashim kerak.

– Bolamning hamma qon "analiz"lari yaxshi chiqqan. Bir haftadan buyon dard chekib, bir burda bo'lib yotibdi. Boshqa qon topshirtirmayman.

– Shunday deng, unda Muxlisa Shonazarovnaga o'zingiz javob berasiz! – "qishloqi" ayoldan bunday jasoratni kutmagan hamshira shunday dedi-yu, qo'lidagi shprisni achchiq bilan joyiga qo'ydi.

Xonasiga qaytgan Zarofat shifokordan tanbeh eshitishini sezgan ko'yi karavotga holsiz cho'kdi. "Qo'lchalaringga katta ignalar tiqib, qon olmagan yaxshi bo'ldi, – uxlab yotgan o'g'ilchasiga mehr bilan termildi juvon. – Hali sog'lom bo'lib ketasan, o'g'lim. Do'xtirlar qaysi joying og'riq berayotganini bilmayapti xolos. Hozir dadang kelib qoladi, senga yaxshi qarashlarini so'rab, do'xtir bilan gaplashadi". Tuni bilan uxlamay, ko'zi yumilib ketayotgan ayol o'tirgan ko'yi bolasiga termilganicha pinakka ketdi...

Zarofatning poytaxtga kelganiga ko'p bo'lgani yo'q. Institutning kechki bo'limida o'qib, kunduzi avtoparkda ishlaydigan eri Rahmonali "shaharni bir aylanib kelgin", deb qishloqdan olib kelgandi. Kelganiga bir oy bo'ldimi-yo'qmi, o'g'ilchasi kasal bo'lib o'tiribdi. Yo'qsa, qaynonasining oldida tinchgina o'tirgan bo'lardi. Bir tomoni eri yashab turgan yotoqxona sharoiti unga yoqmadi. Keyin qishloqning oldi bo'lib yurgan juvon katta shaharga kelib, go'yoki yo'q bo'lib ketdi. Kiyinishidan tortib yurish-turishiga qadar "pason" shaharliklardan ajralib qoldi.

Mana, katta shifoxonada ham hamma unga nopisand qarayotgandek tuyulaveradi. Aslida ham shunday. Davolovchi katta shifokorni hamshiralardan tortib bemor bolalarning onalariga qadar "Muxlisa Shonazarovna", deya murojaat qiladi. Zarofatning "do'xtir" deb gapirishidan professor shifokorning har gal ensasi qotadi.

– Nurmatova, nega hamshiraning bolangizdan qon olishiga qarshilik qildingiz? – kutilmaganda xonaga kirib kelgan Muxlisa Shonazarovna qovoq uyib, Zarofatga tanbeh bera ketdi. – Nima, bolangizning qoni kamayib qoladimi?

– "Analiz"lar yaxshi chiqdi, degandingiz, shunga besh oylik go'dakdan yana qon olish...

– Ikkinchi bor tekshirilganda qonda biror o'zgarish, infeksiya aniqlanishi mumkin, – qoshlarini chimirdi professor shifokor. – Aytib qo'yay, ikkinchi bor mening muolajamga qarshi chiqsangiz, bolangizni davolamayman!

Zarofat boshini eggan ko'yi jim qoldi. Faqat eri kelgan zahoti yig'lab yubordi. Alamdanmi, xo'rlikdanmi, nopisand qarashlardanmi, yig'isini to'xtata olmayotgan juvon eriga yalindi:

– Iltimos, bizni bu yerdan olib keting. Yaqin o'n kundan buyon Ilyosbekda o'zgarish bo'lgani yo'q. Bolam bechora dard tortaverib...

– O'ylab gapiryapsanmi, Zarofat? Kasal bolani qanday qilib olib chiqib ketamiz?

– Boshqa shifokorga ko'rsatamiz. Bu turishda... – yig'isini to'xtata olmasdi u.



– O'zingni bos, shifokor bilan gaplashay-chi, nima der ekan...

Zarofatning "o'z roziligim bilan kasal bolamni shifoxonadan olib chiqib ketyapman", deya tilxat yozib chiqib kelganiga ikki kun bo'ldi. Erini boshqa shifokorga olib borishini kutayotgan juvonda hamon uyqu yo'q, bolasi injiq va yig'loqi. Harqalay, o'g'ilchasini yotoqxonaning uzun koridori bo'ylab ko'tarib yurgan ayolni hech kim turtkilayganicha yo'q. Hamma o'zi bilan o'zi ovora.

Yarim tunda bolasini yupatishga harakat qilib yurgan Zarofatni yotoqxonaga kirib-chiquvchilarni nazorat qiluvchi ayol – Zera opa yoniga chaqirdi.

– Qizim, ering "smena"dami deyman, ko'rinnmayapti?

– Ha, ertalab ishdan qaytsa, bolamni do'xtirga olib boramiz.

– Bola bechoraning qayeridir og'riyapti chog'i, bo'lmasa, bu qadar injiqlik qilib yig'lamasdi. Kel, "03" ga telefon qilamiz, do'xtirlar bolangni ko'rib ketadi.

– Shunday qilsa bo'ladimi? – shoshib qoldi Zarofat. – Nahotki...

– Albatta, bo'ladi, hozir chaqiramiz, – Zera opa unga javob qaytarish asnosida telefon qilishga tutindi. – Mening tungi chaqiruvlarda ishlaydigan tanish hamshiram bor. Yoshi katta ayol, ammo tajribada unga yetadigani yo'q. Agar bugun smenada bo'lsa, hozir iltimos qilib ko'raman.

– Yaxshi bo'lardi, – chiroyi ochildi Zarofatning. Biroq "professor shifokor bolamning dardini topa olmadi-yu, hamshira aniqlay olarmikan?" degan xayol dilini bir oz xira qildi.

– Omading bor ekan, qizim, men aytgan hamshira bugun ishda ekan, hozir

keladi, – telefon go'shagini joyiga qo'yar ekan, chorasiz turgan juvonga foydasi tegayotganidan mamnun edi Zera opa. – Qizim, sen xonangga boraver, bolang uxlab qolganiga o'xshaydi. Hamshira kelsa, olib kiraman.

Ko'p fursat o'tmay, yoshi keksaroq hamshira ayol qo'lida maxsus sumka bilan nazoratchi opa boshchiligidan kirib keldi. Bu paytda o'g'ilchasi Ilyosbek ko'p yig'lamoqdan charchab, uxlab qolgandi.

– Bolangga nima qildi, qani, gapir-chi, qizim?

Hamshira Zarofatning so'zlarini tinglash barobarida sumkasidan termometr olib, unga tutqazdi:

– Bolaning issig'ini o'lchaylik-chi. Endi bosh kiyimini yech, quloqlarini ko'raman.

Hamshira Ilyosbekning ikkala qulog'ini o'z uslubida bosib ko'rgan zahoti uxlab yotgan bola chinqirib yubordi.

– Mana, bolangning kasalini aniqladik, qizim. Qulog'i shamollaganiga kamida bir oy bo'lgan, qattiq og'riq bergan. Quloq og'rig'iga hatto katta odam dosh bera olmaydi. Yana ozgina vaqt o'tkazganingda bu shamollash yomon oqibatga olib kelishi: quloq pardalari teshilib, bolang kar bo'lib qolishi, bu miyaga asorat berishi mumkin edi. Hozir muolaja yozib beraman...

Zarofat yoshi ulug' hamshiraga qanday minnatdorlik bildirishni bilmasdi. Professor Muxlisa Shonazarovna davolay olmagan o'g'ilchasini oddiy hamshira hayotga qaytargandi go'yo.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"



# “PARIJ – 2024” SARIL ODIMLAR

Joriy yil Parij shahri (Fransiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiada hamda XVII Paralimpiya o‘yinlari yaqinlashgan sayin ularga yo‘llanma olish uchun turli sport turlari bo‘yicha hal qiluvchi saralash yoki reyting ochkolari jamg‘arish musobaqalari tobora qizg‘in tus olmoqda. Mazkur bahslarda O‘zbekiston terma jamoasi a‘zolari, jumladan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham faollik ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston delegatsiyasining “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari uchun jamg‘argan yo‘llanmalari soni 50 taga yetdi.

Yurtimizda sportni, xususan Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini jadal rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirishga qaratilayotgan doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik o‘z samarasini berayotir. Buni so‘nggi yillarda sportchilarimiz qo‘lga kiritayotgan yutuqlar misolida ham ko‘rish mumkin. Davlatimiz rahbarining “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori bu jarayonni zamonaviy talablar asosida tashkil etishda dasturlamal bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbarining ushbu qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, tegishli vazirlik va idoralar, sport federatsiyalari tomonidan izchil ishlar olib borilishi esa o‘z samarasini bermoqda. Buning misolini bugungi kunga kelib sportchilarimizning “Parij – 2024” Olimpiadasi uchun qo‘lga kiritgan litsenziyalari sonida ko‘rishimiz mumkin – 50 ta bo‘ldi! Ayniqsa, futbolchilarimiz qo‘lga kiritgan tarixiy g‘alaba yurtimizning juda ko‘plab sport muxlislarini bag‘oyat xursand etdi. Endilikda davrlarda, o‘zaro muloqotlarda sport xususida so‘z borsa, albatta, futbol bo‘yicha olimpiya terma jamoamiz va o‘yinchi talga olinadi. Turli bahs va munozaralarga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari uchun yo‘llanmalarni qo‘lga kiritish borasida boks, taekvondo, eshkak eshish, velosport, badiiy gimnastika, zamonaviy beshkurash, suvga sakrash, qilichbozlik, kamondan o‘q otish, erkin kurash, yunon-rum kurashi, sport gimnastikasi, yengil atletika kabi 17 ta sport turi bo‘yicha bahslarda vakillarimiz faollik ko‘rsatdi. Bu borada kurash, ya‘ni reyting ochkolari jamg‘arish hamda saralash musobaqalari hamon qizg‘in davom etyapti. Jarayonda sportchilarimiz ham shiddat ko‘rsatib, mustaqil O‘zbekiston ulug‘lamoqda.

## BOKS

2-iyun kuni O‘zbekiston delegatsiyasining “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari uchun yo‘llanmalari soni yana bittaga ko‘paydi. Mazkur voqealik Tailand poytaxti Bangkok shahrida bo‘lib o‘tgan boks bo‘yicha “Parij – 2024” Olimpiya o‘yinlari uchun yo‘llanma beruvchi II Jahon saralash turirida sodir bo‘ldi. Unda O‘zbekiston ayollar terma jamoasining 3 nafar vakili qatnashdi. Afsuski, Rashida Tagirova (-60 kg) va Aziza Zokirova (-75 kg) musobaqadagi ishtiroklarini erta yakunladi. Tagirova birinchi, Zokirova esa ikkinchi bosqichda nomdor raqiblariga imkoniyatni boy berdi. -66 kg vazn toifasida ringga ko‘tarilgan bokschi qizimiz



bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasining asosiy negizi

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillaridan iborat. Iyun oyining dastlabki kunlari ular Janubiy Koreyaning Mungyon shahrida taekvondo WT bo‘yicha harbiylar o‘rtasida o‘tkazilgan XXVII jahon chempionatida qatnashdi. Dunyoning 20 dan ortiq mamlakatidan 300 nafarga yaqin

Navbahor Hamidova esa murabbiylar-u yurtimiz sport muxlisleri ishonchini qozondi. U dastlabki bosqichda bolgariyalik Joana Nvameruyega ustidan 5:0 hisobida ishonchli g‘alabaga erishdi. Ikkinchi bosqichda germaniyalik Leoni Myullerni, uchinchi davrada janubiy koreyalik Sujin Seonni dog‘da qoldirdi. Keyingi bosqichdagi g‘alaba esa Hamidovaga Olimpiada litsenziyasini taqdim qilardi. Mazkur yakuniy bosqich jangida yurtdoshimiz serbiyalik Kristina Kuluxovadan ustun keldi va O‘zbekiston delegatsiyasi hisobiga “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari uchun 50-yo‘llanmani taqdim etdi!

Navbahor Hamidova erishgan muvaffaqiyatning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, bokschi qizlarimiz ilk bor Olimpiya o‘yinlariga 4 ta yo‘llanmaga ega bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda xotin-qizlar sporti, xususan ayollar boks rivoji yangi bosqichga chiqayotganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tarkibidan armiyamiz sportchilari ham o‘rin olgan boks bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlarida 11 nafar vakil bilan qatnashadigan bo‘ldi. Bu borada dastlabki muvaffaqiyatlarga Hasanboy Do‘smatov (-51 kg), Abdumalik Xalakov (-57 kg), Bahodir Jalolov (+92 kg) va Nigina O‘ktamova (-54 kg) kabi 4 nafar mahoratli charm qo‘lqop ustamiz erishgan bo‘lsa, joriy yilning mart oyida Italiyaning Busto-Arsizio shahrida o‘tkazilgan I Jahon kvalifikatsion tumiridan so‘ng ular safiga Sabina Boboqulova (-50 kg), Sitora Turdibekova (-57 kg), Ruslan Abdullayev (-63,5 kg), Asadxo‘ja Mo‘ydingo‘jayev (-71 kg), To‘rabek Habibullayev (-80 kg) va Lazizbek Mullajonov (-92 kg) ham qo‘shilgandi. Navbahor Hamidova ular safini 11-bo‘lib to‘ldirdi. Qayd etish joiz, bokschi yigitlarimiz uchinchi bor ketma-ket to‘liq tarkibda Olimpiada ishtirokchisiga aylandi. Bokschilarimizga Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o‘yinlarida ham shunday yutuqlar tilaymiz!

## TAEKVONDO

“Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlariga beriladigan yo‘llanmalarning 100 foizlik natijasiga erishib bo‘lgan taekvondo bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi esa XXXIII yozgi Olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlikni allaqachon boshlab yubordi.

Ma‘lumki, taekvondo

taekvondochi ishtirok etgan musobaqada O‘zbekiston terma jamoasi a‘zolari 12 ta medalga sazovor bo‘ldi. Shundan 6 tasi oltin, 2 tasi kumush, 4 tasi bronza medaldir.

Murosasiz bahslar natijasiga ko‘ra, eng yetakchi taekvondochimiz, “Tokio – 2020” yozgi Olimpiya o‘yinlari g‘olibi Ulug‘bek Rashitov (-68 kg) oltin medalni qo‘lga kiritdi. Bundan ruhlangan mahoratli taekvondochilarimiz – Jasurbek Jaysunov (-80 kg), Shuhrat Salayev (-87 kg), Nikita Rafalovich (+87 kg), Feruza Sodiqova (-62 kg) va Gulsanam Aljonova (-73 kg) o‘z vazn toifalarida oltin medalga sazovor bo‘ldi. Finalga qadar o‘tgan janglarda g‘alaba qozongan Madina Mirabzalova (-57 kg) va Svetlana Osipova (+73 kg) kumush medal bilan taqdirlangan bo‘lsa, Samira Adashaliyeva (-46 kg), Zuxra Tojimatova (-49 kg), Marjona Primova (-53 kg), Ozoda Sobirjonova (-67 kg) bronza medal sohibiga aylandi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi musobaqada O‘zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi. Barakalla!

5-iyun kuni Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida g‘olib va sovrindor sportchilarimizni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda qatnashgan mudofaa vaziri o‘rinbosari polkovnik Alisher Norboyev terma jamoamiz a‘zolarini erishilgan yuksak natija bilan muborakkob etdi. Jahon chempionati qahramonlariga milliy odatlarimizga binoan, o‘zbekona zardo‘z to‘n kiydirdi. Harbiy sportchilarni bu kabi tantanali kutib olish marosimi Seul–Toshkent reysi bilan poytaxtimizga qo‘ngan yo‘lovchilar tomonidan ham munosib olqishlandi.

Keling, shu o‘rinda Parij shahrida o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o‘yinlarida yurtimiz sport sharafini himoya qiladigan taekvondochilarni yana bir bor eslab o‘tamiz: Ulug‘bek Rashitov, Jasurbek Jaysunov, Ozoda Sobirjonova, Svetlana Osipova.

## ESHKAK ESHISH

Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo‘lib o‘tgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo‘yicha litsenzion Osiyo chempionati yakuniga ko‘ra, terma jamoamiz a‘zolari “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlarida 8 ta dastur bo‘yicha bellashuvlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgandi. O‘zbekiston “ROWING & CANOE” federatsiyasi ma‘lumotiga ko‘ra, tarkibi to‘liq MVSM vakillaridan iborat bo‘lgan sportchilarimiz quyidagi yangi dasturlarda ham “Parij – 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlarida startga chiqishi kutilmoqda:

K1 500 metr: Nilufar Zokirova (MVSM)  
S1 200 metr: Yekaterina Shubina (MVSM)  
S2 500 metr: N. Zokirova / Y. Shubina (MVSM)  
K2 500 metr: N. Zokirova / Y. Shubina (MVSM)  
S1 1000 metr: Shaxriyor Mahkamov (MVSM)

## YENGIL ATLETIKA

Toshkentda yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston ochiq chempionati o‘tkazildi. Ushbu turnir Butunjahon yengil atletika federatsiyasi taqvimidan o‘rin olgan bo‘lib, unda “Parij – 2024” normativini bajargan sportchilar Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritishlari yoki qimmatli reyting ochkolarini jamg‘arishlari mumkin bo‘lardi. Shu bois 2-iyunga qadar davom etgan musobaqada ham yurtlarimizdan tashqari Tojikiston, Qozog‘iston va









# QADR TOPAYOTGAN XALQ O'YINLARI

Muallif suratga olgan

Bugun aksariyat yumushlarimiz uydan chiqmasdan bajarilyapti. Xaridlar, hujjatlar, ta'lim va turli boshqa muammolar qo'limizdagi telefon orqali internetga ulangan holda o'z yechimini topmoqda. Hatto bo'sh vaqtni ham internetdan bosh ko'tarmasdan tongni tunga ulayapmiz. Aksar farzandlar ham uyning boshqa burchagida siz va biz foydalanayotgan "qulaylik"larga mukkasidan ketgan holda, bolalik davrini onlayn yashab o'tmoqda. Bolaligimizda ko'chadan uyga kirishni istamagan bo'lsak, bolalarimiz uydan ko'chaga chiqmayapti. Chunki ularga harakatli o'yinlardan ko'ra virtual olamdagi onlayn o'yinlar qiziqroqdek. Pirovardida yaqin o'tmishda siz-u biz o'ynagan "lanka", "oq terakmi, ko'k terak", arqon tortish, ko'pkari, tosh ko'tarish kabi ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nomoddiy meroslar unutilib ketmoqda. Hatto bunday yo'qolib ketishlarning oldini olish maqsadida hukumat darajasidagi qarorlar imzolanib, xalq o'yinlarini saqlab qolish, ommalashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish uchun barcha choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida bo'lib o'tgan tosh ko'tarish musobaqasi ham ayni unutilish arafasida bo'lgan xalq o'yinlarini ommalashtirishga qaratilgan. Mudofaa vazirligi sport markazida bo'lib o'tgan ushbu turnirda Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari va Davlat xavfsizlik xizmati jamoalari bellashdi.

– Tosh ko'tarish sport turi bo'yicha musobaqa kuch tuzilmalari o'rtasida ikkinchi marotaba o'tkazilmogda, – deydi polkovnik Avaz Azimov. – Kelgusida ushbu musobaqaning doimiy ravishda o'tkazilishini ta'minlashga harakat qilyapmiz. Chunki musobaqa tarzida o'tkazilgan har qanday sport turi harbiylarimiz o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltiradi. Raqobat esa, o'z navbatida, mahorat oshishiga xizmat qiladi. O'ziga bo'lgan ishonch ortib boradi. Jismonan baquvvat bo'lgan harbiy xizmatchining jangovar shayligi ham ortadi. Yaqinda Andijon viloyatida bo'lib o'tgan tosh ko'tarish bo'yicha O'zbekiston chempionatida ham Mudofaa

vazirligi terma jamoasi barcha vazn toifasida ishtirok etib, chempionatning mutlaq g'olibligini qo'lga kiritish bilan birgalikda yangi rekordlarni ham o'rnatdi. Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan harbiy xizmatchilar ishonchni oqlamoqda.

Musobaqada sportchilar 60, 65, 70, 75, 80, 85, 90 va +90 kilogrammdan yuqori bo'lgan, jami sakkiz vazn toifasida bellashdi. Me'yorlarga ko'ra, tosh og'irligi 24 kilogramm bo'lib, ishtirokchilar uni dast va siltab ko'tarish bilan o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi. Yakka tartibda o'rinlar har bir vazn ishtirokchilarining ikkikurash (*dast va siltab ko'tarish mashqlari*)da ko'rsatgan natijalarining yig'indisi hamda har bir vazn toifasi bo'yicha jamoa ishtirokchilarining egallagan o'rinlari yig'indisiga asosan, umumjamoa viy o'rinlar aniqlandi.

Unga ko'ra, umumjamoa hisobida 1-o'rin Mudofaa vazirligi jamoasiga nasib etdi. Ikkinchi o'rinni Davlat xavfsizlik xizmati sportchilari zabt etgan bo'lsa, 3-o'rin Ichki ishlar vazirligi jamoasi vakillari tomonidan band qilindi.

– Ushbu musobaqada tosh ko'tarish sporti bo'yicha amaldagi jahon chempionlari bilan birgalikda ilk ishtirokchilarning ham harakatlarini kuzatdim. Birinchi marotaba qatnashayotgan sportchilarning texnikasi past bo'lgani bilan, ulardagi shijoatni ko'rib, havasim keldi, – deydi O'zbekiston Bahodirlar o'yinlari va tosh ko'tarish federatsiyasi rahbari Vohiddin Najmiddinov. – Bugungi musobaqa ishtirokchilari ham avgust oyida Qirg'iziston Respublikasining Issiqko'l shahrida bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etib, yuqori natijalarni zabt etishini xohlardim. Musobaqada bosh hakam sifatida uning xolis va shaffof o'tishini ta'minladim. Kim kuchli bo'lsa, o'sha sportchi g'alaba qozonsin. Natijalardan hech kim norozi bo'lmadi. Katta ustunlik bilan Mudofaa vazirligi jamoasi g'olib bo'ldi. Aslida, boshqa tuzilmalar ham faollik ko'rsatishini iltimos qilardim. Raqib qancha kuchli bo'lsa, musobaqaning shiddati yanayam oshadi. Qolaversa, kelgusida yurtimiz sha'ni himoya qilish uchun jahon chempionatlariga terma jamoani saralash ishlari ham oson kechadi.

Unutilayotgan xalq o'yinlarining qaytarilishi uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar tahsinga loyiq. Ammo, birinchi navbatda, islohotlar oiladan boshlanishi kerak. Buning uchun oila boshlig'i sifatida mas'uliyat albatta o'zimizning zimmamizda. Agar bor vaqtimizni virtual olamga baxshida etar ekanmiz, kelajagimiz bo'lgan bolalarimizdan ham kelgusida mehrni onlayn olishga majbur bo'lamiz.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"









# "VATANPARVAR" YANA G'OLIB!



Rossiya Federatsiyasi Moskva viloyatining Korolyov shahrida sportning raketamodel turi bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

To'rtta davlat – Rossiya, Belarus, O'zbekiston va Tojikistonning 150 dan ortiq sportchisi ishtirok etgan ushbu nufuzli musobaqada "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi 2 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta

bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobidan 1-o'rinni egalladi.

Jumladan, sportchilar tomonidan quyidagi natijalarga erishildi:

1. Shahboz Bafojev: "S-9-A"-sinfida 1-o'rin, "S-3-A" va "S-4-A"-sinflarida 3-o'rin (*Buxoro v.*)
2. Farhod Bakiev: "S-10"-sinfida 1-o'rin (*Samarqand v.*)
3. Najmiddin Zaylidinov: "S-7"-sinfida 2-o'rin (*Namangan v.*)
4. Isroiljon Ramataliyev: "S-7"-sinfida 2-o'rin (*Namangan v.*)
5. Shamsiddin Bafojev: "S-10"-sinfida 3-o'rin (*Buxoro v.*)
6. Azizbek Turg'unov: "S-7"-sinfida 3-o'rin (*Namangan v.*)

Bundan tashqari, Shamsiddin Bafojev "Eng yaxshi murabbiy" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topildi.

# HUDUDIY BOSQICH MUSOBAQALARI DAVOM ETMOQDA



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining Andijon va Toshkent viloyatlari bosqichi o'tkazildi.

Unda mahallalarda istiqomat qilayotgan 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 240 nafardan ortiq yosh ishtirok etdi. Unda dastavval jamoalarning O'zbekiston harbiy tarixiga doir bilimlari va safda qo'shiq aytish mahoratlari tekshirildi. So'ngra jamoalar a'zolari pnevmatik quroldan o'q otish va harbiylashtirilgan

estafeta bo'yicha bellashdi. Yoshlar estafeta doirasida avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va to'liq yig'ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardi.

Duatlon, 100 metr masofaga yugurish, turnikda tortilish va o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish shartlarida

esa yoshlar jismoniy tayyorgarlikka nechog'li ega ekanini namoyon etdi.

O'yinlarning Andijon viloyati bosqichida 1-o'rinni Marhamat, 2-o'rinni Paxtaobod, 3-o'rinni Andijon tumanlarining jamoalari egalladi.

Toshkent viloyatida kechgan bahslarda 1-o'rin Chirchiq shahri, 2-o'rin Qibray tumani, 3-o'rin Angren shahri jamoalariga nasib etdi.

Endilikda g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoalar respublika bosqichida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining ko'chma kubogi uchun bellashadi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

## Bu muhim!

Har yili avtomashinalarga o'rnatilgan gazballonlar portlashi oqibatida o'nlab baxtsiz hodisa ro'y berib, insonlarning hayoti xavf ostida qoladi. Achinarlisi, haydovchining loqaydligi yoki ehtiyotsizligi oqibatida begunoh insonlar jabr ko'rmoqda.

Afsuski, ko'pchilik haydovchilar gaz balloni qancha bosim ostida bo'lishi kerakligini bilmaydi yoki bilsada, amal qilishni xohlamaydi. Transportda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik, gaz ballonlarini o'z vaqtida nazoratdan o'tkazmaslik qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi esa hech kimga sir emas.

Xo'sh, avtomobil gaz balloni nima uchun portlaydi? Buning oldini olish mumkinmi?

Quyida avtomobilga o'rnatilgan gaz balloni portlashiga sabab bo'luvchi omillar, ularni bartaraf etish va transportda xavfsizlikni

# HAYOT XAVFSIZLIGI UCHUN!



ta'minlash chora-tadbirlari haqida so'z yuritimiz.

### Foydalanish muddati.

Ishlab chiqaruvchilar tomonidan gazballonlarning foydalanish muddati – 15 yil deb belgilangan. Ammo uni saqlash va ekspluatatsiya sharoitining og'irligiga qarab, bu muddat kamayishi mumkin. Ya'ni gazballondan belgilangan me'yor va talablar asosida foydalanilmasa, albatta u muddatidan oldin yaroqsiz holatga kelib qoladi.

**Davriylik sikli.** Bu ko'rsatkich gazballonga bir yilda necha marta gaz quyish kerakligini anglatadi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqaruvchilar tomonidan yiliga mingta deb belgilangan. Ammo amaliyotda ayrim haydovchilar gazballonga yiliga ikki ming marotabadan ham ko'proq gaz quyadi. Bu ham gazballonning "umrini qisqartiradi".

**Bosim.** Gazballondagi bosim 20 megapaskaldan oshib ketmasligi kerak. Afsuski,

ko'pchilik haydovchilar uzoqroq yo'l bosish maqsadida ko'proq bosim ostida gaz quyishga harakat qiladi. Buning oqibati esa ayanchli yakun topishi mumkin.

**Texnik ko'rik.** Gazballonlar har yili kamida bir marotaba yuqori bosim ostida sinovdan o'tkazilishi kerak. Bu gazballon devorlarining mustahkamligini, tashqi va ichki deformatsiyaga uchramaganini aniqlash va yana bir yil foydalanish uchun ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ballondagi gaz cho'kmalari va boshqa chiqindilar tozalanib, yuviladi.

Afsuski, ko'pchilik haydovchilar gazballonni sinovdan o'tkazishdan qochadi. Buning uchun noqonuniy yo'llardan ham tap tortmaydilar. Oqibatda gazballonlar yillar davomida sinovdan o'tkazilmasdan qolib ketaveradi. Ballon mahkamlangan konstruksiyalardagi himoya rezinalari shikastlanadi, temir konstruksiyalar va tashqi muhit ta'sirida ballonda deformatsiya boshlanadi, gaz cho'kmalari ta'sirida ichki yemirilish kuchayadi va oxir-oqibat gazballon portlaydi.

**Sifat.** 2018-yil fevral oyidan buyon respublikamizda SPG-2 turdagi (*kapron*) gaz balloni foydalanishdan chiqarilgan. Bunga mazkur gazballonlarning mustahkamligi yetarli darajada emasligi va foydalanish muddatining kamligi sabab qilib ko'rsatilgan. Ammo hozir ham "kapron" kompozit qoplamali gaz ballonlaridan foydalanish holatlari uchrab turadi. Eng xatarlisi, ayrim holatlarda ballon yuzasidagi kompozit qoplamaning olib tashlab, xuddi po'lat ballondek ko'rsatish holatlari aniqlanmoqda. Bu esa xatar xavfini kuchaytiradi.

**To'g'ri o'rnatish.** Gazballonlar faqat tegishli litsenziyaga ega mutaxassislar tomonidagina o'rnatilishi lozim. Shuningdek, gaz uskunalarining standart xavfsizlik klapanlari bo'lishi kerak. Arzon va qo'lbola xavfsizlik klapanlari tezda ishdan chiqadi va zarur hollarda ishlamay qoladi. Oqibati esa hammaga ma'lum.

Hech bir avtomobil favqulodda vaziyatlardan to'liq muhofaza etilmagan. Ammo xavfsizlik talablariga rioya etish orqali bunday ko'ngilsizliklarning oldini olish mumkin. Shu sababli transport vositalarini doimo soz holatda boshqarish, harakat davomida hushyorlikni yo'qotmaslik hamda gaz ballonlarini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazib turish lozim.

**Podpolkovnik  
O'ktam XAITOV**



# ENERGIYAMIZNI o'g'irlovchi odatlar

Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun ertalab uyg'onganimizda uyquga to'yimaslik va charchoq hissi bo'ladi? Tuni bilan uxlasakda, kunduzi ishchanlik qobiliyati past va energiya yetishmaydi. Balki, buning sababi biz e'tibor bermaydigan oddiy odatlardadir.

Energiyaning kun davomida yuqori bo'lishi uchun, avvalo, sog'lom turmush tarziga rioya qilish lozim. Masalan, to'g'ri ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va vaqtida uxlash. Shu bilan birga zararli odatlardan voz kechish lozim.

Tasavvur qiling, energiya – idishdagi suv, ammo bu idishda teshiklar mavjud bo'lsa, unda yetarli miqdordagi suvni saqlash uchun ikki yo'l bor: doimiy ravishda idishga suv quyib turish yoki idishni yamash. Siz qay birini tanlagan bo'lardingiz? Idishni yamash to'g'ri bo'lardi, albatta. Xo'sh, energiya idishimizdagi teshiklar nima? Quyida bunga javob topamiz.



## 1. Serial va ko'rsatuvlar ko'rish

Haddan tashqari his-tuyg'uga boy, emotsional, murakkab syujetga ega seriallar aqliy charchoqqa olib kelishi mumkin. Buning sababi esa o'zimizni ularning o'rnida tasavvur qilishimiz, solishtirishimiz. Qahramonlar his qilayotgan kechinmalarni o'zimizda his etish. His-tuyg'ularga ortiqcha berilish asab tolalarining qo'zg'alishiga olib keladi. Bu jarayondan chiqish uchun esa yanada ko'proq energiya talab qilinadi. Shu sababli turli xil serial va ko'rsatuvlar o'rnini motivatsiya beruvchi filmlarga almashtirgan ma'qul.

## 2. Noto'g'ri ovqatlanish

Pala-partish ovqatlanish, gazli ichimliklarga ruju qo'yish, shirinliklarni ko'p iste'mol qilish organizmni toliqtiradi. Organizmni energiyaga to'yintirish o'rniga bo'shashtiradi. Chunki tanamiz energiyani biz iste'mol qilgan narsalardan oladi. Iloji boricha bir vaqtda ovqatlanishga odatlaning. Taomnomangizda meva, sabzavot va yong'oqlar asosiy o'rinda bo'lsin. Albatta, suv haqida unutmay! Suvni to'g'ri ichish ko'pgina kasalliklarning oldini oladi.

## 3. Uy yoki ishxonadagi tartibsizlik

Tartibsizlik e'tiborimizni doim o'ziga tortadi. Natijada ko'p vaqtimiz va energiyamiz oddiy, elementar narsalarga sarflanadi. Shuning uchun xoh uyingiz, xoh ish stolingiz bo'lsin, tartibga keltirish uchun har kuni hech bo'lmaganda 10–15 daqiqa vaqt ajrating. Bu mashg'ulotni iloji boricha sevimli musiqangiz sadolari ostida bajaring, shunda kayfiyatingiz ko'tariladi.

## 4. Ko'p narsani oldindan rejalashtirish

Oldindan rejalashtirish vaqtni to'g'ri taqsimlashga yordam beradi, biror narsani unutib qo'yimaslikni ta'minlaydi. Ammo bu vazifalar ko'p bol'sa-chi? Ularni haddan tashqari ko'p va oldindan o'ylab yurish moslashuvchanlikdan mahrum etadi. Bu bizni hozirgi paytda emas, balki kelajakda yashashga majbur qiladi. Shu sababli rejalashtirishni hayotning muayyan sohalarida qo'llang. O'zingizni keraksiz muammolar bilan chalg'itmaslikka harakat qiling.

## 5. Tugallanmagan ishlar

Oxiriga yetkazilmagan ishlar doimiy ravishda energiyamiz sarflanishiga sababchi bo'ladi. Shu bilan birga o'zimizga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Shunday ekan, boshlagan ishlaringizni, xoh u ilm olish bo'lsin, xoh til o'rganish, oxiriga yetkazishga harakat qiling.

## 6. G'iybat va hasad

G'iybat va hasad kabi illatlar energiyamizni ketkazadigan eng katta omillardan biridir. Muqaddas dinimizda ham bu odatlar qoralanadi. G'am-tashvishlardan yiroq bo'lishni, oilada tinchlik-xotirjamlik hukm surishini xohlasak, bu illatlardan saqlanaylik. Qalbimiz va amallarimizni go'zal qilaylik!



## Qatiqli yumshoq pryantik

Bolajonlarimiz pryantikni sevib iste'mol qiladi. Keling, uni uy sharoitida pishirishni o'rganamiz.

**Kerakli masalliqlar:** 1 stakan qatiq, 400 g shakar, 3 dona tuxum, 1 osh qoshiq asal, 3 osh qoshiq o'simlik moyi, 300 g un, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi.

**Tayyorlanishi:** tuxumni oqidan ajratib, shakar solib, ko'pirtirib olamiz (bitta tuxum oqini glazur uchun olib qo'yamiz). So'ng aralashmaga asal, ilitilgan qatiq va o'simlik moyi, tuxumning sarig'ini qo'shib, aralastiramiz. Yaxshilab elangan unga soda qo'shib, xamir tayyorlaymiz. Ozgina tindiramiz. Tingan xamirlarimizni barmoq qalinligida (1-1.5 sm) yoyib, stakan og'zi yoki tayyor shaklchalar yordamida kesamiz.

Pishirish uchun idishga pergament qog'oz qo'yib, pryantiklarni zich qilmagan holda terib, pechda +180 C haroratda 30 daqiqa davomida pishiramiz. Olib qo'yilgan bitta tuxum oqini aralastirib, ko'pirtiramiz. 30 daqiqadan keyin pryantiklarni pechdan chiqarib olib, ustiga glazur surib, yana 10 daqiqaga pechga qo'yamiz.

Ta'bga ko'ra, maydalangan yong'oq, mayiz, shirinligimizga shokoladrang berish uchun kakao kukunini qo'shishingiz mumkin.

Tayyor bo'lgan pryantikimizni sovitiib, dasturxonga tortamiz.

**Yoqimli ishtaha!**



# Hamkasbimiz, shoir Bek Alining nazm kechasi



Shoir, hamkasbimiz, "Vatanparvar" gazetasi tahririyatining yetakchi mutaxassislaridan biri – dizayner, "Shuhrat" medali sohibi Begali Eshonqulov – Bek Ali Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi zallaridan birini she'riyat muxlislariga to'ldirdi.

Mayning so'nggi kunlaridan birida Begali bizni O'zbekiston Milliy kutubxonasi bo'lib o'tadigan she'riyat tadbiriga taklif qildi. Ijtimoiy tarmoqlarda berilgan e'lonni o'qigan edik. Unda Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda "Mutolaa" da she'riyat nomli teatrlashtirilgan nazm kechasi o'tkazilishi bildirilib, barcha qiziqqan muxlislar taklif etilgandi. Shoirmi qo'llab-quvvatlash niyatida uning gulduros ovoza qo'llarini sermab-sermab she'r o'qishini tasavvur qilib, aytilgan joyga bordik.

To'garak, o'rtachagina zal o'rindiqlar bilan to'ldirilgan. O'rtada ikki-uch qadamlilik yo'lak qoldirilgan. Tadbir boshlanmasidan zal odamlar bilan to'ldi, kechikib kelganlar tik oyoqda qoldi. Uch yuzga yaqin muxlis nimadir sodir bo'lishini intiqlik bilan kutmoqda.

Nihoyat, gulduros ovoz taraldi tevarakka. Odamlarning she'r eshitishga bo'lgan bunchalik ishtiyoqini ko'pdan buyon kuzatmagandim. Ortimizda tik turgan talabalarning ba'zilar past ovoza Bek Aliga jo'r bo'ladi.

*Og'ir ketmonlarning tevalangani  
Hanuz qulog'imda urib turar bong.  
Begona o'tlardan tozalar edik  
Xudoyim yaratgan tuproqni har tong...*

She'r ruhi yig'ilganlarni tobora o'ziga rom qila boshladi. Har kimning fikr dunyosida bir muhim jarayon, nigohlar shoirga qadalgan. Ba'zi she'rlar mavzusiga daxldor kichik sahna ko'rinishlarida goh baxtiyor yoshlik, goh keksalik, goh mehr-muhabbat, goh qayg'u va og'riq hislari...

*Qo'ylarni sevardi bizning O'rin chol,  
To'ylarni sevardi bizning O'rin chol.  
"Jononga bordim"ni xirgoyi qilib,  
Kuylarni sevardi bizning O'rin chol,  
Mehnatni sevardi bizning O'rin chol,  
Millatni sevardi bizning O'rin chol.  
O'tgan-ketganlardan guring berguvchi  
Ulfatni sevardi bizning O'rin chol.  
Bahodir bo'lmadi, baxshi bo'lmadi,  
O'ldi, O'rin cholning o'rmi to'lmadi...*

Salkam ikki soat davom etgan teatrlashtirilgan nazm kechasida taniqli shoir va aktyor Erkin Bozorov mehmon bo'ldi.

Keyinroq bilishimizcha, ushbu nazm kechasini viloyatlardagi muxlislar ijtimoiy tarmoqlarda jonli tomosha qilibdi. Ana shulardan biri Dilnoza Ibragimova yozadi: "Onlayn ko'rdim, zo'r bo'ldi. Bu faqat

Toshkent bilan cheklanmasdan viloyatlarda ham bo'lishini kutib qolamiz". "Juda ajoyib. Haqiqiy she'r muhitini his qildik, barcha tashkilotchilarga rahmat", deydi Sarvinoz Baratova. Bildirilgan fikrlarda "Shunchaki super!" degan qisqa va lo'nda izohlar ham uchraydi. Haqiqatan ham Bek Alining teatrlashtirilgan nazm kechasi shunchaki "super" bo'ldi.

TAHRIRIYAT



Bek ALI

## KECHIR

*Kechir. Xafa qildim. Yo'l edi og'ir,  
Qimorboz edim-u, qo'l edi og'ir.  
Sendan o'zga mendan jabr ko'rmadi,  
Jabrdiydam, menga shul edi og'ir.*

*Mening musiqam yo'q, shovqin-suronman,  
Eshigingni tepgan telba bo'ronman.  
Kechirgin, azizam, olisdasan-u,  
Orazingni o'ylab, rashkman, gumonman.  
Sen go'zal eding-da, shul edi og'ir.*

*Menga Layli sensan, menga Uzro sen,  
O'lsam, kamroq yig'la, qabrim uzra sen.  
Tilovat qilsinlar bir-ikki og'iz,  
Eshitib yotayin, ko'proq so'zla sen.  
So'zsiz tikilarding, shul edi og'ir.*

*Gullar xomush tortar namozshom chog'i,  
Osmonga yoyilar oqshom bo'yog'i.  
Tilim achchiq mening, maydan ham achchiq,  
Tingla, ustixonim nayning qiyog'i.  
Sen vaqt topolmading, shul edi og'ir.*

*Kechir. Xafa qildim. Yo'l edi og'ir,  
Kaflarimdan yog'gan do'l edi og'ir.  
Bitta gul tutqazsam, ko'ngling to'lardi,  
Bir quchoq keltirsam, to'g'ri bo'lardi.  
Gul sotuvchi xotin qarab turardi.  
Qarashlar va o'ng-u so'l edi og'ir,  
Qotil qo'llarimga gul edi og'ir.*

*Kechir. Xafa qildim...*



@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati  
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan  
tahririyatining kompyuter markazida  
sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida 2008-yil  
6-iyunda 0535 raqami bilan  
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov  
Musahhah: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5761

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 186 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani  
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop  
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq  
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya